

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta maxsus ta’lim vazirligi
Buxoro davlat universiteti**

TARIX KAFEDRASI

**Mavzu: Tarix, globallashuv, sivilizatsiya jarayonlarining
o‘zaro aloqadorligi: tahlil va talqin**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

BMI rahbari: o‘qit. D.Murodova

Akbarov Kamoliddin Rauf o‘g‘li

BUXORO - 2018

MUNDARIJA:

Кириш.....3

1-bob. Tarixiy jarayonlar hamda hozirgi sivilizatsiyaning o‘zaro aloqadorligi evolyusiyasi va mohiyati

1.1. “Tarix”, “tarixiy jarayonlar”, “tarixning mohiyati” tushunchalariga umumiy tavsif.....9

1.2. “Sivilizatsiya” tushunchasi: o‘tmish, hozir va kelajakning o‘zaro aloqadorligi evolyusiyasi va mohiyati.....15

2-bob. O‘zbekistonning jadal taraqqiyot davri tarixida globallashuv jarayonining o‘rni

2.1. Globallashuvning kelib chiqishi va evolyusiya bosqichlari....35

2.2. Globallashuv jarayonida O‘zbekiston.....46

Хулоса.....53

Фойдаланилган адабиётлар ва манбалар.....57

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillik yillarida mamlakatda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati qurishga, erkin bozor munosabatlariga va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirishga, xalq osoyishta va farovon hayot kechirishi uchun shart-sharoitlar yaratishga, xalqaro maydonda O‘zbekistonning munosib o‘rin egallashiga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

O‘zbekistonning eng yangi tarixida 2017 yil 22 dekabr sanasi muhim voqelikka daxldorligi bilan tariximizga kirdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoev tarixda ilk bor parlamentimizga o‘z murojatnomasi bilan chiqib, sivilizatsion va globallashuv jarayonlari shiddatli kechayotgan dunyoda O‘zbekistonning o‘rni va istiqboldagi taraqqiyot yo‘li qanday bo‘lishi kerakligini tahlil etib berdi.

2017 yil 7 fevralda PF-4947-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni e‘lon qilindi. «Ijtimoiy sohani rivojlantirish» deb nomlangan to‘rtinchi yo‘nalish maktabgacha ta‘lim muassasalarining qulayligini ta‘minlash, umumiy o‘rta ta‘lim, o‘rta maxsus va oliy ta‘lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirishni nazarda tutadi.

Ko‘rinib turibdiki, davlat va hukumatimiz biz yoshlardan katta umid qilmoqda. Biz shunga munosib ishlashimiz va yashashimiz kerak.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan 2015 yil 15-16 may kunlari Samarqand shahrida “O‘rta asrlar SHarq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidadagi roli va ahamiyati” mavzusida xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tgan edi. Konferensiyada O‘zbekiston Birinchi Prezidenti I.A.Karimov o‘z ma‘ruzasida o‘rta asarlarda yashab ijod qilgan sharq allomalarining buyuk ilmiy merosi

bebaho ekanligi va ularning bugungi taraqqiyot va kelajak uchun ahamiyati ulkan ekanligini e'tirof etdi.¹ Ko'rinib turibdiki, jamiyat tarixida ilmiy bilish sohasi ulkan rol o'ynaganligi hatto O'zbekiston Birinchi Prezidenti I.A. Karimov tomonidan ham e'tirof etilmoqda.

Sivilizatsiya ob'ektiv va qonuniy jarayon sifatida jahonning barcha mamlakatlari va millatlari ijtimoiy hayotining iqtisodiy, siyosiy, axloqiy-diniy, madaniy-ma'naviy, ekologik va boshqa sohalarini qamrab olgan bo'lib, uning sur'atlari tobora tezlashib borayotgani aniq. Sivilizatsiya oqibatida kelib chiqqayotgan muammolarning u yoki bu jihatlari barcha millatlar va davlatlarning manfaatlari, taqdiri va maqsadlariga ham aloqador. Sivilizatsiya sub'ektlari ijtimoiy - iqtisodiy, madaniy, kommunikativ va axborot tizimlari orqali bog'langan bo'lib, bunday bog'lanish millatlararo va davlatlararo o'zaro ta'sirning yangi global shaklida namoyon bo'lmoqda. Ko'rinib turibdiki, sivilizatsiya bugungi kunning eng dolzarb, o'tkir va ziddiyatli muammolaridan biriga aylandi.

Sivilizatsiya ijtimoiy integratsiyaning sifat jihatdan yangi bosqichidir. Insoniyat paydo bo'libdiki, u o'z tarixiy taraqqiyotining barcha davrlarida ham turli shakllardagi ijtimoiy integratsiya jarayoni tizimi doirasida hayot kechirgan. Demak, bunday integratsiyaning ildizlari juda qadimiy bo'lib, ular jamiyat shakllanishining boshlariga borib taqaladi. Ammo bugungi kunga kelib bu ob'ektiv jarayon unga sub'ektlarning aralashuvi oqibatida sun'iylik xususiyatlari kasb etib bormoqdaki, bu holat barcha mamlakatlarning ham taqdiriga aloqador bo'lgan muammolarni keltirib chiqarmoqda hamda ulardan globallasuvga nisbatan munosabatini qat'iy belgilab olishni talab etmoqda. Sivilizatsiyani o'rganish jamiyatning bugungi taraqqiyoti va kelajagi nuqtai nazaridan muhim bo'lib, mazkur holat bir necha jihatlar bilan belgilanadi. "Biz hozirgi sivilizatsiya o'zida ifoda etadigan ijobiy qadriyatlar jumlasiga huquqiy - demokratik jamiyat qurish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlarimizni kiritamiz. Bu inson

¹ Каримов И.А. Ўрта асрлар Шарқ алломалари ва мутафаккирларининг тарихий мероси, унинг замонавий цивилизация ривожига роли ва аҳамияти". Халқ сўзи., 2014 йил, 16 май. № 95. 1-2 бет.

huquqlariga rioya etish, tadbirkorlik erkinligi, soʻz erkinligi, matbuot erkinligi va hakazolardir”.²

Sivilizatsiya barcha mamlakatlar va millatlarni oʻzaro bogʻlovchi jarayon. Dunyo hamjamiyati oʻz taraqqiyotida hali bunchalik bir-biri bilan kuchli bogʻlanmagan va bir butunlikka intilmagan edi. Bunday bogʻlanish barcha mamlakatlar va millatlar oldiga bir tomondan, ularning iqtisodiy –ijtimoiy taraqqiyoti uchun keng imkoniyatlar yaratayotgan boʻlsa, ikkinchi tomondan, bir qator muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Mazkur chigal masalalarni kichik tadqiqot doirasida echish va uni toʻla oʻrganishga muallif davo qilmaydi. Biroq koʻrinib turibdiki, Oʻzbekiston yoshlarini kelgusida barkamol avlod boʻlib etishishi uchun mafkuraviy jarayonlarni tarixiylik, xolisonalik bilan oʻrganish zarur. YUqoridagi omillardan kelib chiqib, men tomonimdan tanlangan “Tarix, globallashuv, sivilizatsiya jarayonlarining oʻzaro aloqadorligi: tahlil va talqin” deb nomlangan aynan mazkur mavzu oʻzining dolzarbligiga va davrtalabligiga ega.

Mavzuni oʻrganilganlik darajasi. “Tarix, globallashuv, sivilizatsiya jarayonlarining oʻzaro aloqadorligi: tahlil va talqin” deb nomlangan aynan mazkur mavzu doirasida deyarli koʻp ishlar qilinmagan. Buning qoʻyidagicha oʻziga xos murakkabliklari mavjud.

Birinchiidan, sivilizatsiyani oʻrganish eng avvalo, tarixiy taraqqiyot jarayonining dinamikasi va tendensiyalarini oʻrganishdir, chunki globallashuv tarixning barcha bosqichlarida ham u bilan yonma-yon amalga oshgan va kelajak tarixi bu jarayondan ajralmasdir.

Ikkinchiidan, sivilizatsiya tobora chuqurlashib va kengayib borayotganligi sababli uni oʻrganish jamiyatning kelajagi, taraqqiyot yoʻnalishlarini oʻrganish va istiqbollarni aniqlash bilan bogʻliq. Bu nuqtai nazardan ijtimoiy hayotni rejalashtirish davomida albatta, unga globallashuvning taʼsiri hisobga olinishi shart.

²И.А.Каримов. Ўзбекистон XX1 аср бўсағасида: хавфсизликка тахдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари.Т. 1997, 147-б.

Uchinchidan, sivilizatsiya millatlar va mamlakatlarni o‘zaro bog‘liqligini kuchayishiga olib kelayotganligi tufayli muammo sivilizatsiyani integratsiya, demokratiya, plyuralizm, erkinlashtirish, modernizatsiya va tolerantlik doirasida tahlil etish bilan bog‘liq.

To‘rtinchidan, sivilizatsiyani o‘rganish O‘zbekistonning boshqa davlatlar va millatlar bilan o‘zaro aloqalarining yo‘nalishlarini aniqlash va ularning kelajagini gumanizm, o‘zaro tenglik, plyuralizm kabi tamoyillar asosida to‘g‘ri belgilashga hamda globallashuv va unga moslashib borish sharoitida yashash, milliylikni saqlab qolishning yangi va samarali yo‘llarini izlab topishga xizmat qiladi.

Sivilizatsiya tushunchasi tarkibiga qadriyatlar ham kiradi. O‘zbekiston Birinchi Prezidenti I.A.Karimov bu haqda shunday deb yozadi: “Biz hozirgi sivilizatsiya o‘zida ifoda etadigan ijobiy qadriyatlar jumlasiga huquqiy - demokratik jamiyat qurish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan qadriyatlarimizni kiritamiz. Bu inson huquqlariga rioya etish, tadbirkorlik erkinligi, so‘z erkinligi, matbuot erkinligi va hakazolardir”³.

Hozirgi shiddatli davr muammolari ichida tarix, sivilizatsiya va globallashuvning o‘zaro aloqadorligi masalasini o‘rganish muhim masala bo‘lib qoldi. Aytish lozimki, mavjud mamlakatlar va millatlar nafaqat iqtisodiy va siyosiy jihatdan, ilmiy - madaniy va san‘at taraqqiyotida ham o‘ziga xos tarixiy davrlarni boshdan kechirgan. Jahon hamjamiyatining taraqqiyoti ko‘p jihatdan ularning tarix, sivilizatsiya va globalalshuv doirasidagi o‘rni va roli kabi jihatlarga ham bog‘liq. Bu tizimda O‘zbekistonning o‘rnini o‘rganish alorhida ahamiyat kasb etadi. SHunga ko‘ra tarix, sivilizatsiya va globalalshuvning yuzaga kelishi, taraqqiyot qonuniyatlari hamda ularning o‘zaro aloqadorlik masalalarini falsafiy tahlil etish muhim masala hisoblanadi.

1819 yilda “sivilizatsiya” so‘zi birinchi marta ko‘plik ma’nosida qo‘llanilib, xalqlarning sivilizatsiya taraqqiyotida turli tumanlik tan olindi. Keltirilgan tushunchalar bilan bir qatorda XIX asrda sivilizatsiyaga butunlay boshqa ma’no

³ Ўзбекистон XX1 аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т., 1997. Б.-147.

berila boshlandi. Dastlab “sivilizatsiya” va “madaniyat” tushunchalari deyarli bir xil ma’nodagi qo‘llanilgan bo‘lsa-da, “Vaqt o‘tishi bilan bu ikki tushunchalar farqlana boshlandi. Sivilizatsiya tarkibiga rivojlanish holatida bo‘lgan bir butun mamlakatlar va xalqlarni kirita boshladilar. F.Gizo “Evropada sivilizatsiya tarixi” (1828), so‘ngra “Fransiyada sivilizatsiya tarixi”ni (1830) yozadi, R.Bokl “Angliyada sivilizatsiya tarixi”ni (1857-1861) nashr etdi”⁴. Keyinroq sivilizatsiyani N.Danilevskiy “madaniy – tarixiy tur”, O.Shpengler “yuksak madaniyat”, Toynbi tarixning asosini tashkil etuvchi “lokal sivilizatsiya”, P.Sorokin “madaniy supertizim”, F. Brodel esa “madaniy – tarixiy zona” sifatida tasvirlaganlar.

Hozirgi globallashuv davrda sivilizatsiyalar va madaniyatlararo o‘zaro munosabatlarning tobora kengayib borishi bu hodisani yanada dolzarb mavzuga aylantirdi. Globallashuv doirasida olib borilayotgan ilmiy-falsafiy tadqiqotlar ham sivilizatsiya hodisasini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni yanada oshirdi. Bu sohada so‘nggi paytlarda o‘zbek olimlari, Rossiyalik va boshqa chet el tadqiqotchilari tomonidan yaratilgan ko‘plab ilmiy asarlarni aytib o‘tish mumkin⁵.

Bu masala bo‘yicha siyosatshunos olim I.Ergashevning fikrini keltirib o‘tish o‘rinli bo‘ladi: “Sivilizatsiya-har bir xalqning o‘ziga xos tarixiy-madaniy rivojlanishi, shakllangan qadriyatlar, an’analar, urf-odatlar, tafakkur tarzida namoyon bo‘ladi. ... Dunyoning yaxlitligi uning xilma-xilligini inkor etmaydi. Aksincha, ana shu turli xil madaniyat, din, ilm-fan va adabiyot, san’at uni boyitadi”⁶.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi: tarix, sivilizatsiya va globallashuv jarayonlarining o‘zaro aloqadorligining evolyusiyasi va mohiyati kabi masalalarni o‘rganish va tahlil etish, bugungi jadal taraqqiyotga tarix, sivilizatsiya

⁴ Василенко И.А. Политическая глобалистика. М.: Логос, 2000. -С.350.

⁵ Яковец Ю.В. Глобализация и взаимодействие цивилизаций. Экономика. Издание 2-е. Дополненное и переработанное. М., Экономика. 2003, История цивилизаций. М.: Владос, 1997, У истоков новой цивилизации. М.: Дело, 1993, Становление постиндустриальной цивилизации. М.: Экономика, 1992; Василенко И.А. Диалог цивилизаций: социокультурные проблемы политического партнерства. М.: Эдиториал УРСС, 1999;

⁶ Эргашев И. Тараққиёт фалсафаси.-Т.: Академия, 2000. 40- б. А.Хўжаев. Буюк ипак йўли. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти. Т., 2007.

va globallashuv jarayonlarining ta'siriga e'tibor qaratishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Bitiruv malakaviy ishi bo'yicha qo'yidagi vazifalarni belgilab oldik:

-tarixiy jarayonlar hamda hozirgi sivilizatsiyaning o'zaro aloqadorligi evolyusiyasi va mohiyatini ochib berish;

-O'zbekistonning jadal taraqqiyot davrida globallashuv jarayonining o'rni va tarixiy asoslarini tahlil qilish.

Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati. Mazkur malakaviy ishda aks etgan materiallardan talabalar va bu sohada qiziquvchi kitobxonlar foydalanishlari mumkin. Unda keltirilgan misollar va ayrim ma'lumotlar sivilizatsiya, tarix va globalashuv sohasini o'rganayotgan maktab, litsey va kollej o'qituvchilari va o'quvchilari uchun ham muhimdir.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikkita bob va ikkita paragraf, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

1-bob. Tarixiy jarayonlar hamda hozirgi sivilizatsiyaning o'zaro aloqadorligi evolyusiyasi va mohiyati

1.1. "Tarix", "tarixiy jarayonlar", "tarixning mohiyati" tushunchalariga umumiy tavsif

Tarix ijtimoiy borliqning ajralmas qismi va atributidir. "Tarix" tushunchasi "ijtimoiy borliq" tushunchasiga yaqin, ammo mazmunan bir xil emas. Tarix oddiydan murakkabga tomon harakat qiluvchi, ob'ektiv, va uzluksiz, ortga qaytmas va cheksiz jarayondir. Bu jarayon o'z evolyusiyasida o'tmish, hozirgi zamon va kelajakni birlashtiradi. Bu nuqtai nazardan tarix o'ziga xos bosqichlardan iborat bo'lgan va vorislikka asoslangan evolyusion jarayon.

Har qanday millat yoki mamlakat tarixi u yoki bu holatda jahon tarixiga aloqador. Jahon tarixi tarli millatlar va xalqlarning turlicha tarixi asosida shakllangan bo'lib, unda mazkur millatlar va xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayoti, tarixiy qadriyatlari, madaniyati, turmush tarzi, mentaliteti va h.k. aks etadi. Jahon tarixi turli millatlar va xalqlarning xususiy tarixlari, madaniyati va sivilizatsiyasining sintezi sifatida mavjud bo'lishi mumkin. Dialektik nuqtai nazardan jahon tarixi millatlar va davlatlarning har xil tarixi asoslangan, ma'lum ma'nodaga bir xillikni tashkil etadi, deb e'tirof etish mumkin.

Tarix, sivilizatsiya va globallashuvning o'zaro aloqadorlik masalasi hozirgi davrda dolzarflik kasb etib bormoqda. Globallashuv ijtimoiy hayotning ajralmas xususiyatiga aylandi. Globallashuv hozirgi kunda barcha millatlar va davlatlar hayotining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy, til va boshqa sohalariga o'z ta'sirini o'tkazmoqda va ularning turmush tarzini tubdan o'zgartirib yubormoqda. Globallashuvning ta'siridan chetda qolayotgan soha qolmadi, deb aytish mumkin. bu jarayonning ta'siriga tortilmagan millatlar va davlatlar qolmadi. O'zlarining hohishi va irodasidan qat'iy nazar ular globallashuv jarayonida ishtirok etmoqdalar. Ularning ayrimlari bu jarayonning ob'ektiga, boshqalari esa sub'ektlariga aylangani holda, yana birlari bu

jarayonga shunchaki ergashuvchi yoki kuzatuvchi sifatida munosabatda bo‘lmoqdalar.

YUqorida ta’kidlab o‘tilgan masalalar doirasida tarix va globallashuv, ularning o‘zaro bog‘liqligi, jahon tarixi va globallashuvning o‘zaro aloqadorligi, globallashuvning makoniy jihatlari kabi muammolar ko‘plab o‘zbek olimlari va chet el tadqiqotchilarining diqqat e’tiborida turibdi.⁷

Sivilizatsiya va globallashuvning ildizlari insoniyat tarixining shakllanishi bilan bog‘liq. Qisqacha qilib, globallashuvni turli xalqlar va jamiyatlarning iqtisodiy-ijtimoiy hayoti integratsiyasining yuqori bosqichi sifatida ta’riflash mumkin. Bu jarayonning ildizlari kishilar va turli xalqlar o‘rtasidagi dastlabki iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy munosabatlarning yuzavga kelishi davrlariga borib taqaladi. Aytish mumkinki, insoniyat tarixi ushbu munosabatlar bilan parallel holda boshlangan. Asta sekin turli tarixlarning ham o‘zaro munosabatlari uchun sharoit paydo bo‘ldi va bunday asosda jahon tarixi paydo bo‘ldi.

Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning kengayib borishi natijasida alohida millatlar, mamlakatlar va davlatlar tarixlari bir-biri bilan o‘zaro aloqador bo‘la boshladi. O‘z navbatida bunday aloqadorlik mavjud munosabatlarga aks ta’sir ko‘rsatib, ularning yanada rivojlanishi va taraqqiy etishiga olib keldi. Millatlar va davlatlarning tarixlari jahon tarixining elementalariga aylandilar. Jahon tarixi doirasida mantiqan olib qaralganda, boshqalar bilan o‘zaro aloqador bo‘lmagan yagona tarixning bo‘lishi mumkin emasligi aniq.

Tarix, globallashuv va jahon tarixi taraqqiyotining mantig‘i o‘zaro mos keladi. Bu nuqtai nazardan insoniyat tarixini globallashuvning ham tarixi sifatida e’tirof etish mumkin. Chunki xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar va munosabatlarsiz tarixning shakllanishi amalga oshmaydi. Demak, tarixni amalga oshish jarayonining o‘zi globallashuvning ham tug‘ilishiga sabab

⁷Актуальные проблемы глобалистики и геополитики. Красноярск. СФУ, 2012; Василенко И.А. Политическая глобалистика.-М.: Логос, 2000; Саидов У.Глобаллашув ва маданиятлараро мулоқот.-Т.: Академия, 2008; Умаров Б.Глобаллашув зиддиятлари.-Т.:Маънавият, 2006; Яковец Ю.В.Глобализация и взаимодействие цивилизаций.-М.:Экономика, 2003 и др.

bo'radi. Turli yakka holda olingan tarixlarning o'zaro bog'lanishi globallashtirish orqali amalga oshadi.

Kishilar va jamiyatlar o'z hayotida o'zaro munosabatlarga va aloqadorlikka intiladilar. Ular alohida yashay olmaydilar. Tarix mavjudligi va taraqqiyotining dialektikasi shundayki, u alohida xalqlar va jamiyatlar bog'liqligi va munosabatlari tarixi sifatidagina amalga oshishi mumkin. Bunday aloqadorlik va munosabatlarsiz millat yoki biror bir jamiyat tarixi juda oddiy, qisqa va rangsiz bo'lishi tabiiy. Bunday tarixning yashovchanlik xususiyati ham shakllanmaydi. Masalan, turli sabablarga ko'ra bugungi kunda sivilizatsiyadan ajralib qolgan xalqlar tarixi so'zimizga misol bo'lishi mumkin. Ularning hayoti haqida nimalarni aytish mumkin?

Jamiyat taraqqiyoti bilan birga uning o'ziga o'xshash jamiyatlar bilan o'zaro aloqalari kengayib va chuqurlashib boradi. Ular birgalikda ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarini kengaytirib boradilar, moddiy va madaniy boyliklar yaratadilar, yangiliklar kashf qiladilar va barcha sohalarda ijod qiladilar. Demak, doim kishilar, millatlar va turli jamiyatlar tabiiy holda o'zaro aloqalarga va munosabatlarga intiladilar. Badiiy, ilmiy ijod va ijodning boshqa shakllari asosida insoniyat yanada ko'proq yangiliklar yaratib boradi, hamda bunday yangiliklar o'zaro aloqalarning yanada kengayishiga ta'sir ko'rsatadi. SHunday qilib, asta sekin turli jamiyatlar o'rtasida integratsiya jarayoni yuzaga keladi. Iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarda hamjamiyatlar, korporatsiyalar shakllanadi. Endi iqtisodiy sohaga ergashib, madaniyatlar va sivilizatsiyalar ham o'zaro aloqaga kiradilar. Sivilizatsiyalar taraqqiy etib borib, tarixning o'zi ularning almashinuvi sifatida namoyon bo'la boshlaydi.⁸

Integratsiyaning yuzaga kelishi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, tarix sub'ektlari uchun qulay shart-sharoitlar paydo

⁸См. Тойнби А. Дж. Постигание истории. Сборник. М.: Прогресс, 1991. Шпенглер О. Закат Европы. Т.1. Образ и действительность. Новосибирск, Наука, 1993; Яковец Ю.В. Глобализация и взаимодействие цивилизаций. -М.: Экономика, 2003 и др.

bo'ladi. Bu jarayonda tarix va globallashuv birgalikda boradi. Demak, e'tirof etish mumkinki, globallashuvning ildizlari dastlabki iqtisodiy munosabatlar, dastlabki harbiy yurishlar, davlatlar o'rtasidagi urushlar, jahon dinlarining shakllanishi kabi tarixiy hodisalarning yuz berishi bilan bog'liq bo'lib, ularning barchasi hozirgi kunda tobora rivojlanib borayotgan globallashuvning amalga oshishida muhim rol o'ynagan dastlabki ijtimoiy omillar hisoblanadi.

Turli xalqlar va davlatlarning munosabatlari globallashuvsiz amalga oshmaydi. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti uchun izolyasiya (ihotalanish) zarur emas, aksincha, boshqa jamiyatlar bilan o'zaro aloqalar zarur. Demak, har qanday jamiyatning tarixi boshqa jamiyatlar va ularning tarixlari orqaligina yaratiladi. Bunday holat esa ma'lumki, integratsiya va globallashuvsiz amalga oshmaydi. Agar dastlab integratsiya va keyinroq globallashuv tarixda o'z-o'zidan tabiiy amalga oshgan bo'lsa, keyinchalik tarixiy jarayonning qanday borishi, xususiyatlari hamda yo'nalishlari globallashuvga bog'liq bo'lib boradi.

Xalqlar va davlatlar qanchalik ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlarini rivojlantirib borganlari sari, shunchalik integratsiya va globallashuv kengayib va rivojlanib boradi. SHunday qilib, tarixning rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan globallashuv jarayoni endi o'zi tarixni yarata boshlaydi va turli davlatlar va xalqlarni o'z doirasiga tortib boradi. Buning natijasida alohida xalqlar va davlatlarning tarixi ham jahon tarixiga yanada bog'lanib boradi.

YUqorida qayd etilganlardan ko'rinib turibdiki, globallashuv jarayoni tabiiy va ob'ektiv tarzda yuzaga keladi va rivojlanib boradi. Uning o'zi tarix tizimida yuzaga kelgan bo'lsada, endi uning taraqqiyoti davomida o'ziga xos bo'lgan qonuniyatlari yuzaga keladi, dialektik rivojlana borib, endi u tarixga aks ta'sir ko'rsata boshlaydi. Asta sekin uning sub'ektlari, ya'ni globallashuvga ta'sir ko'rsatishga, o'z maqsadlari va manfaatlaridan kelib chiqqan holda uning borishini ma'lum yo'nalishlarga burib yuborishga intiluvchi va uni amalga oshiruvchi sub'ektiv kuchlar paydo bo'ladi. Bunday

kuchlar iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ekologik va h.k. sohalarda o'z ta'sirlarini o'tkazishga harakat qiladilar. Endi ular bir xil manfaatlar asosida turli iqtisodiy, siyosiy, diniy, harbiy va h.k. xalqaro tashkilotlarga birlasha boshlaydilar. Ko'p hollarda tarixiy jarayonning borishi, mohiyati, ziddiyatlari va kelajagi ko'p jihatdan ana shu kuchlarga bog'liq bo'lib qoladi. Bu nuqtai nazardan tarix ham globallashuvning o'xshashligi shundaki, bu ikkala ob'ektiv jarayon ham kishilarning ongli faoliyatisiz amalga oshmaydi.

Umumiy qilib aytganda, tabiiy xususiyatga ega bo'lgan globallashuv jarayoni endi sun'iylik xususiyati kasb eta boshlaydi. Buning natijasida turli mamlakatlar va davlatlar kutilmagan iqtisodiy-siyosiy muammolarga duch keladilar, ixtiyorlariga zid ravishda ziddiyatlarga va muammolarga tortila boshlaydilar. Ko'p hollarda bunday ziddiyatlar harbiy ixtiloflar va hatto ulkan urushlarga, inqiloblarga olib keladi.

Demak, falsafiy nuqtai nazardan tarix va globallashuv bir tomondan, alohida olingan qonuniy va ob'ektiv jarayon bo'lsa, ikkinchi tomondan ikkita o'zaro bir-biriga aloqador bo'lgan jarayon. Bu ikki jarayon ba'zan yonma-yon, ba'zan bog'liqlikda amalga oshadi. Ularning ikkisi ham o'ziga xos murakkab strukturaga, o'xshash jihatlarga va amalga oshish qonuniyatlariga ega. Tarix globallashuvga nisbatan birlamchi hodisa bo'lib, globallashuvni amalga oshishining shartidir. O'z navbatida globalalshuv ham tarixiy jarayon mavjudligining asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Tarixiy jarayonda yuzaga kelgan globallashuv dastlab integratsiya shaklida amalga oshadi. Kishilarning, turli jamiyatlarni, ularning tarixini bir-biriga bog'lagan holda, globallashuv integratsiyaning yuqori shakli sifatida namoyon bo'la boshlaydi. tarixning qonuniyatlari kishilarning ongi orqali o'tgan holda amalga oshadi. Ayniqsa, bu jarayonda shaxslar, buyuk shaxslar, siyosiy partiyalar va ularning etakchilari, harbiy sarkardalar, turli siyosiy guruhlar va h.k.lar ulkan rol o'ynaydilar. Ular tarixni harakatlantiruvchi kuchlaridir.⁹

⁹Плеханов Г.В. К вопросу о роли личности в истории. Избр.филос.произведения. т.5.

Tarix ham ob'ektiv va ham sub'ektiv jarayon, chunki u insonlarning faoliyatisiz amalga oshmaydi. Tarix vorislik xususiyatiga ega. Uning rivojlanishi avlodlar o'rtasidagi bog'liqlik, aniqrog'i vorislikka asoslanadi. Jamiyat tomonidan yaratilayotgan har qanday qadriyatlar o'tgan avlodlardan bugungi avlodga va undan kelajakka o'tib boradi. Har bir yangi avlod o'z navbatida yangiliklar yaratadi, ijod qiladi va shu yo'l bilan tarixni to'ldiradi va rivojlantiradi. SHunday qilib tarixning uzluksizligi, avlodlarning bog'liqligi va ular o'rtasida vorislik ta'minlanadi. Tarixning mavjudligi shunga asoslanadiki, "... har qanday sharoitda ham avlodlar o'rtasidagi doimiy bog'liqlik to'la uzilib qolmaydi, har doim avlodlarning vorisligini ta'minlovchi elementlar saqlanib qoladi. Tarixda madaniyat, ta'lim, moddiy ishlab chiqarish kabi ijtimoiy mexanizmlar tomonidan vorislik to'la bo'lmasada, kafolatli ta'minlanadi. Buning natijasida ijtimoiy jarayon u yoki bu tarzda tajriba, bilim, moddiy va ma'naviy boyliklar to'planib boradigan tarix xususiyatlariga ega bo'lib boradi"¹⁰.

Qayd etilgan jarayonlarga asosan har bir avlod ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ma'lum tarixiy tajriba ega bo'ladi va u hayotini boshidan boshlamaydi. Bundan kelib chiqadiki, insonlar tug'ilgan davrlaridan boshlab o'tmish tajribasini va boshqalar bilan o'zaro bog'liqlikning natijalarini anglash va qabul qilish holatida bo'ladi. Aytish mumkinki, o'zaro aloqadorlik kelajakning ham mavjud bo'lishini ta'minlaydi. Qaysidir ma'noda globallashuv tarixning yashashini ta'minlab beradi. Bunday qonuniyat o'zining mantig'iga ega. CHunki vaqt o'tib borishi bilan kishilar o'zlari mansub bo'lgan bitta avlod tomonidan to'plangan tajribaning o'zi tarixning mavjudligini ta'minlab bera olmaydi, aniqrog'i, boshqalar bilan bog'lanmagan bitta avlodning tajribasi kamlik qiladi.

Sivilizatsiya tushunchasi tarkibiga qadriyatlar ham kiradi.I.A.Karimov bu haqda shunday deb yozadi: "Biz hozirgi sivilizatsiya o'zida ifoda etadigan ijobiy qadriyatlar jumlasiga huquqiy - demokratik jamiyat qurish jarayoni bilan bog'liq

¹⁰Шаповалов В.Ф. Основы философии современности. К итогам XX века. -М.: Флинта-Наука, 1998. – С.131.

boʻlgan qadriyatlarimizni kiritamiz. Bu inson huquqlariga rioya etish, tadbirkorlik erkinligi, soʻz erkinligi, matbuot erkinligi va hokazolardir”¹¹.

1.2.“Sivilizatsiya” tushunchasi: oʻtmish, hozir va kelajakning oʻzaro aloqadorligi evolyusiyasi va mohiyati

Tarixiy jarayonni sivilizatsiyasiz tasavvur etib boʻlmaydi. Tarix va sivilizatsiya oʻzaro aloqador hodisalar. Ular bir - birini taqazo etadi. “Sivilizatsiya” hozirgi kunda eng koʻp qoʻllaniladigan tushunchalardan biriga aylangan. Bu soʻzni tadqiqodchilar turli maʼnolarda qoʻllamoqdalar. Ushbu tushuncha evolyusiyasining tarixiga nazar solsak, bu tushuncha fransuz tarixchi olimi L.Fevrning aytishicha, birinchi marta 1766 yilda Fransiya maʼrifatparvarlari va Angliya maʼrifatparvarlari tomonidan 1773 yillarda qoʻllangan. “Madaniyat” tushunchasi esa ilk marotaba 1774 yilda ilmiy muomalaga kiritilgan.¹² “Sivilizatsiya” tushunchasining oʻzagi lotincha “civis” boʻlib, “shaharlik”, “shaharlashish” maʼnolarini anglatadi. Dastlab bu tushuncha “silvaticus”, yaʼni “yovvoyi”, “qoʻpol” tushunchalariga qarshi qoʻyilgan. Yangi davrga kelib “sivilizatsiya” “madaniyat”ning sinonimi sifatida ham qoʻllanila boshlandi. Hozirgi davrda ham u madaniy, iqtisodiy va maʼnaviy taraqqiyotning bosqichi sifatida tushuniladi.

Keyinroq sivilizatsiyani N.Danilevskiy “madaniy – tarixiy tur”, O.SHPengler “yuksak madaniyat”, Toynbi tarixning asosini tashkil etuvchi “lokal sivilizatsiya”, P.Sorokin “madaniy supertizim”, F. Brodel esa “madaniy – tarixiy zona” sifatida tasvirlaganlar. Keltirilgan tushunchalar bilan bir qatorda XIX asrda sivilizatsiyaga butunlay boshqa maʼno berila boshlandi. Jumladan, Amerika antropologi L.Morgan va uning ketidan “Oila, xususiy mulk va davlatning kelib chiqishi” asarining muallifi nemis marksist olimi F.Engels ushbu tushunchani insoniyat tarixida yovvoyilik va varvarlik bosqichidan insoniyat haqiqiy

¹¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XX1 аср бўғасида: хавфсизликка тахдид, баркарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т., 1997. Б.-147.

¹²Февр Л.Цивилизация: эволюция слова и группы идей // Бои за историю. М.:Наука. 1991. –с.242-247

jamiyatining bosqichiga o'tish sifatida, aniqrog'i, oila, xususiy mulk, sinflar va davlatning paydo bo'lishi bilan bog'liq tarzda tushungan edilar.

Dastlab "sivilizatsiya" va "madaniyat" tushunchalari deyarli bir xil ma'noda qo'llanilgan bo'lsada, "Vaqt o'tishi bilan bu ikki tushunchalar farqlana boshlandi. Sivilizatsiya tarkibiga rivojlanish holatida bo'lgan bir butun mamlakatlar va xalqlarni kiritib boshladilar. 1819 y. "sivilizatsiya" so'zi birinchi marta ko'plik ma'nosida qo'llanilib, xalqlarning sivilizatsiya taraqqiyotida turli tumanlik tan olindi. F.Gizo "Evropada sivilizatsiya tarixi" (1828), so'ngra "Fransiyada sivilizatsiya tarixi"ni (1830) yozadi, R.Bokl "Angliyada sivilizatsiya tarixi"ni (1857-1861) nashr etdi".¹³

Demak, XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab "sivilizatsiya" va "madaniyat" tushunchalari farqlana boshlandi. Dastlab sivilizatsiya yuksak iqtisodiy, madaniy – ma'naviy taraqqiyotni, ko'p jihatdan diniy taraqqiyotni anglatgan bo'lsa (masalan, SHpenglarning fikricha, har bir sivilizatsiyaning asosida din yotadi), keyinroq ma'naviy taraqqiyot ko'proq madaniyat bilan bog'lana boshlandi. Madaniyatning mohiyati endi yuksak sivilizatsiya hamda uning qo'lga kiritgan ulkan yutuqlarini ifoda etuvchi ma'naviyat shakllari va darajasi bilan bog'lana boshlandi.

Ta'kidlab o'tish o'rinliki, sobiq SSSR da marksistik mafkura doirasida sivilizatsiya va madaniyat sohasida qilingan tadqiqotlarda madaniyatning moddiy va ma'naviy turlari e'tirof etilgan bo'lsada, unga asosan tarixiy materializm nuqtai nazaridan yondashildi, ya'ni har qanday sivilizatsiya va madaniyat taraqqiyoti va umuman jamiyatning madaniy taraqqiyoti eng avvalo, iqtisodiyot va moddiylik bilan bog'landi. SHu sababli ham bu davrda ma'naviyat sohasi va uni tahlil etishga etarli e'tibor berilmadi. Bu sohada ayrim ilmiy asarlarni hisobga olmaganda, chuqur ilmiy-falsafiy tadqiqotlar olib borilmadi. Bularning oqibatida barcha sohalarda bo'lgani kabi sivilizatsiya va

¹³ Василенко И.А. Политическая глобалистика. М.: Логос, 2000. –с.350.

madaniyat sohalarini tadqiq etishda ham faqat materialistik yondashuv qaror topdi.

“Madaniyat” tushunchasi o‘zining ko‘p jihatlilik va keng qamrovliligi bilan xususiyatlanadi. Madaniyat sohasida tadqiqotlar olib borgan YA.Uayt, K.Klakxon, A.Kreber kabi chet el mualliflari madaniyat hodisasini jamiyat a‘zolarining birgalikda yashashining mazmuni, jamiyatni esa ana shu mazmuni qamrab oluvchi bir butun tizim sifatida tushunadilar.

Qayd etilgan tushunchalar bilan bir qatorda so‘nggi paytlarda “dunyo sivilizatsiyasi” degan tushuncha ham keng qo‘llanilmoqda. Bu tushuncha avvalo dunyoning umumiy tarixi bilan bog‘liq holda qo‘llaniladi. Dunyo sivilizatsiyasi dunyo tarixining ma‘lum bir bosqichini ifoda etadi va bu tarixiy bosqichda insoniyat o‘zining ma‘lum ehtiyojlari, manfaatlari va intilishlari bilan xarakterlanadi. Bundan tashqari bunday sivilizatsiya o‘zining iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, ilmiy jihatlariga, moddiy ishlab chiqarishning bosqichiga, ishlab chiqarish usuli, ishlab chiqarish kuchlari, iqtisodiy va ma‘naviy munosabatlariga ega bo‘lib, bu davr bir necha asrlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Dunyo sivilizatsiyasi haqida gap ketganda ushbu sivilizatsiyaga o‘z xissasini qo‘shayotgan bir necha sivilizatsiyalar va madaniyatlarning yig‘indisi nazarda tutiladi.

Hozirgi davrda sivilizatsiyalar va madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning rivojlanishi, kengayib borishi va ularning turli shakllarda namoyon bo‘lishi bu hodisani yanada dolzarb mavzuga aylantirdi. Bir tomondan SHarq sivilizatsiyasi va ikkinchi tomondan G‘arb sivilizatsiyasi dunyoda o‘z ta‘sirini kuchaytirish maqsadida tinmay turli yo‘llar bilan harakat qilmoqda. SHu sababli ham sivilizatsiyalarning dinamikasi, ijtimoiy taraqqiyot, jamiyatning evolyusion taraqqiyoti bilan bog‘liq bo‘lgan tadqiqotlar ham sivilizatsiya hodisasini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni yanada oshirdi

Sivilizatsiyaga berilgan ta‘riflarning ayrimlariga e‘tiborimizni qaratsak, bu ta‘riflarda sivilizatsiya asosan uni tashkil etuvchi turli elementlarni birlashtiruvchi bir butunlik ekanligi nazarda tutiladi. Bir qator mualliflarning

ta'riflariga ko'ra, ushbu butunlik o'z navbatida tizimlilik xususiyati bilan ham tavsiflanadi. Masalan, sivilizatsiya axloq, san'at, din, til, fan, madaniy an'analarning birligi evaziga ma'lum bir butunlikka erishgan jamiyat sifatida ta'riflanadi.

Rus olimi YU.YAkovets Sivilizatsiyalar tarixi asarida sivilizatsiya masalasiga atroflicha to'xtab, uni ikki xil ma'noda: dunyo sivilizatsiyalari va lokal sivilizatsiyalar ma'nosida tasavvur etadi. Muallif dunyo sivilizatsiyasini quyidagicha ta'riflaydi: "Dunyo sivilizatsiyasi insonning ma'lum ehtiyojlar, qobiliyatlar, bilim, ko'nikmalar va manfaatlar darajasi va ishlab chiqarishning texnologik va iqtisodiy usuli, siyosiy va ijtimoiy munosabatlar qurilmasi, ma'naviy ishlab chiqarishning rivojlanish darajasi bilan tavsiflanadigan insoniyat tarixining bosqichi; gap asosan o'ta uzoq davrga (ko'pasrlik) mo'ljallangan tarixiy sikl haqida ketmoqda".¹⁴

Ko'rinib turibdiki, keltirilgan ta'rif insoniyat taraqqiyotining aniq bir bosqichida jamiyat va shaxsni tavsiflashi mumkin bo'lgan xususiyatlarni o'z ichiga olgan. Bundan tashqari ta'rifda jamiyat ijtimoiy hayotining deyarli barcha sohalari: iqtisodiy, siyosiy, madaniy - ma'naviy, ilmiy sohalarining taraqqiyot darajasi jamiyatning ehtiyojlari va manfaatlari bilan bog'liqlikda ifoda etiladi. Albatta, sivilizatsiyaga rivojlanish nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, ushbu ta'rifda barcha sohalarning rivojlanish darajasi hisobga olingan va masalaga kompleks yondashilgan. "Lokal sivilizatsiyalar taqdirlari umumiy bo'lgan, umumtarixiy progress sur'atini ba'zan uning epitsentrida turib, ba'zan undan yiroqlashib in'ikos etuvchi va unga ta'sir etuvchi alohida mamlakat, mamlakatlar guruhi va etnoslarning madaniy-tarixiy, etnik, diniy, iqtisodiy – geografik xususiyatlarini ifoda etadi".¹⁵ Bizningcha, ushbu ta'rif asosan lokal sivilizatsiyalarni nazarda tutgan bo'lsada, bu erda so'z "umumiy tarixga ega bo'lgan" etnoslar va "mamlakatlar guruhi" haqida boryapti.

¹⁴Яковец Ю. История цивилизаций. М.:Владос, 1997. –с.41.

¹⁵ Ўша манба.

“Lokal” soʻzining oʻzi alohida, yakka, ajralib qolgan maʼnosini beradi. Bu tushunchani bizningcha, alohida tahlil etilayotgan madaniyatga nisbatan qoʻllash oʻrinli boʻladi. Chunki lokal sivilizatsiyaning oʻzi garchi u lokal, yaʼni alohida boʻlsada, bir necha mamlakat yoki millatni oʻz ichiga olishi mumkin. Demak, bu tushunchani maʼlum sabablarga koʻra, (masalan, tabiiy yoki ijtimoiy) taraqqiyotdan ajralib qolgan yakka mamlakat yoki millatga nisbatan qoʻllash toʻgʻriroq boʻladi. Lokal sivilizatsiyalar nazariyasi tarixning bosqichma-bosqich nazariyasiga qarshi boʻlib, unga koʻra insoniyat tarixi barcha xalqlar uchun yagona jarayon sifatida emas, balki lokal sivilizatsiyalarning kelib chiqishi, rivojlanishi va emirilishi sifatida namoyon boʻladi.

Sivilizatsiya oʻta keng tushuncha, bunday sifatda u turli-tuman madaniyatlarni oʻz ichiga olishi, uning chegaralarini tashkil etuvchi (shartli maʼnoda, chunki makon jihatidan sivilizatsiyaning aniq chegarasini belgilash qiyin) ulkan hududlar va xalqlarni birlashtiruvchi tizimdir. Bu maʼnoda ushbu tushunchaning oʻzi ham nazariy jihatdan koʻplab millatlar va xalqlarni bir tizimga birlashtiradi.

Yakka holda olingan birorta mamlakat yoki millat tarixiga va madaniyatiga nisbatan sivilizatsiya tushunchasini qoʻllash qiyin. Chunki tarixiy davrning maʼlum bir bosqichida mamlakat yoki millat mavjud sivilizatsiyaga tegishli boʻlishi, yoki unga yaqin turishi, yoki oʻzi alohida sivilizatsiya sifatida namoyon boʻlishi mumkin. Kuzatishlar shuni koʻrsatadiki, masalan, “Evropa sivilizatsiyasi”, “musulmon sivilizatsiyasi” ga birlashgan millatlar dinidan tashqari deyarli barcha boshqa sohalarda bir-biridan farq qiladilar. Uning ustiga “sivilizatsiya” koʻproq jamiyatning taraqqiyotini anglatadi. Bu holda turli sivilizatsiya tarixlari davomida har xil davrlarni – jamiyatning gullab – yashnagan yoki turgʻunlikka uchragan davrlarni kuzatish mumkinligi eʼtiborga olinishi kerak. Bunga Evropa mamlakatlarining yoki islom dini tarqalgan mamlakatlarning uygʻonish davrigacha boʻlgan holati va undan

keyingi turg'unlik davrlarini misol qilib ko'rsatish mumkin. Sivilizatsiya makon va zamon chegaralarining ulkanligini ham nazarda tutish lozim.

Har qanday sivilizatsiya quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

1. Ijtimoiy ong
2. Ijtimoiy-siyosiy munosabatlar
3. Iqtisodiy ishlab chiqarish
4. Ilmiy-texnologik ishlab chiqarish
5. Inson, oila, xalq.

Ijtimoiy ong o'z navbatida axloq, din, san'at, fan, siyosat va huquqni birlashtiradi. Ijtimoiy ongning ikki xil darajasi mavjud: ijtimoiy psixologiya va mafkura. Ijtimoiy-siyosiy munosabatlar esa jamiyatda ijtimoiy guruhlar o'rtasida paydo bo'ladigan siyosat sohasidagi aloqalar va hodisalarni o'z ichiga oladi. Iqtisodiy ishlab chiqarish moddiy narsalarni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lib, bu tizim ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlarini birlashtiradi. Ishlab chiqarish kuchlari bu eng avvalo insonlar, ishlab chiqarish vositalari. Ishlab chiqarish munosabatlari esa ma'lum moddiy boylikni ishlab chiqarish davomida paydo bo'ladigan kishilar o'rtasidagi munosabatlar hamda kishilarning mehnat qurollariga bo'lgan munosabatlari. Ilmiy – texnologik ishlab chiqarish esa har bir davrda ilmiy va texnologik taraqqiyot sohasidagi yutuqlarni anglatadi. Sivilizatsiyaning texnologik jihati Insoniyat taraqqiyotining dastlabki davrlarida inson va hayvonlar texnologik kuchni tashkil etgan bo'lsalar, asta-sekin inson taraqqiy etgan sari inson sun'iy narsalarni yarata boshladi. Mehnat qurollari, asbob-uskunalar, turli mashinalar, konveyerlar, robotlar va h.k.lar yarata boshladi. Ular vaqt o'tib borgan sari murakkablashib bordi. Yangi texnologik tizimlar paydo bo'ldi. Ular asosida esa mehnat taqsimoti yanada rivojlandi va kengaya bordi. Texnologik va ilmiy inqiloblar amalga oshdi.

Ijtimoiy-siyosiy tuzilma esa turli ijtimoiy munosabatlarni: jinslar, bolalar va kattalar, kattalar va qariyalar o'rtasidagi munosabatlarni, sinfiy, diniy

siyosiy, huquqiy munosabatlarni birlashtiradi. Etnik va milliy munosabatlar bir hududda yashovchi turli millatlar va elatlar o'rtasidagi munosabatlarni anglatadi. Davlat-huquq munosabatlari hokimiyatning turli shakllari va u bilan bog'liq bo'lgan turli huquqiy qonun qoidalarga asoslangan munosabatlarni ifoda etadi. Bundan tashqari bu sohaga yana davlatning ichki munosabatlari va boshqa davlatlar bilan aloqalari ham kiradi. Siyosiy munosabatlar esa alohida ijtimoiy guruhlarining manfaatlarini ifoda etuvchi partiyalar o'rtasidagi, siyosiy tuzilmalar o'rtasidagi ichki siyosiy munosabatlar va tashqi siyosiy munosabatlarni farqlash lozim.

Albatta, har qanday sivilizatsiya inson va jamiyatning ma'naviy dunyosi bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni ham o'z ichiga oladi. Ular bevosita axloq, din, san'at, fan, ta'lim va madaniyatga aloqador bo'lgan hodisalarni o'z ichiga oladi.

Har qanday sivilizatsiyaning asosida inson turadi. Insonlarni birlashtiruvchi eng kichik jamiyat – oila ham sivilizatsiyada markaziy o'rin egallaydi. Aynan oilada inson ham biologik, ham ijtimoiy jihatdan shakllanadi. Oila ijtimoiy ishlab chiqarishning eng kichik makoni hisoblanadi. Oilalar birlashib jamiyatning yanada kattaroq ijtimoiy guruhlarini tashkil etadi.

Har qanday tarix bu eng avvalo madaniyat, sivilizatsiya va qadriyatlarning o'zaro munosabati va ta'siridan ajralmagan holda taraqqiy etadi. Bu jarayonda ayrim davlatlar va millatlarning madaniyati etakchi rolni ijrochisi sifatida, ayrimlari esa ishtirokchi va boshqalari shunchaki kuzatuvchi bo'lishi mumkin. Qaysi millat va mamlakatlar qanday rolni ijro etishi bir qator ob'ektiv va sub'ektiv omillar bilan bog'liq.

Sivilizatsiyalarning o'zaro munosabati sifatida namoyon bo'layotgan

Sivilizatsiya nazariyalariga e'tibor qaratsak:

Ibn Xaldun nazariyasi. SHarq Uyg'onish davriga kelib Ibn Sino, Farobiy, Ibn Xaldun, Ibn Bodja kabi bir qator mutafakkirlar yaratgan ta'limotlarda ham globallashuv jarayoni masalalari qo'yilganini ta'kidlash mumkin. Jumladan, Ibn Sinoning aql, qalb va jismlarni keltirib chiqaruvchi

yagonalik, Ibn Al-Arabiyning yagona dunyo nazariyasi, Ibn Bodjaning insoniyatning umumiy aql bilan birlashishi natijasida baxtga erishishi mumkinligini e'tirof etuvchi ta'limotlarini aytib o'tish o'rinli bo'ladi. Bu ta'limotlarda aynan globallashuvga oid fikrlar yoki tushunchalar qo'llanmagan bo'lsa-da, mantiqiy jihatdan dunyo tarixining yagonaligi va umumiyligi ifoda etilgan va globallashuv bilan bog'liq masalalar ko'tarilgan, deyish mumkin.

SHarq mutafakkirlarining tarix va uning qonuniyatlari, ijtimoiy falsafaga oid qarashlari doirasida Ibn Xaldunning alohida o'rni bor. V.V. Bartold buni quyidagicha e'tirof etgan: "Bu qonunlarni aniqlashda birinchi intilishlar arab tarixchisi Ibn Xaldunga tegishli, u XIU asrdayoq, bu yo'nalishda Evropa tillaridagi birinchi tajribalardan ancha ilgari tarixiy taraqqiyotning qonunlarini aniqlashni maqsad qilib qo'ygan edi"¹⁶. Ibn Xaldunning "Ijtimoiy hayotning tabiati haqida kitob" asari tarixiy jarayon va jamiyat taraqqiyotining qonunlari tahliliga bag'ishlangan bo'lib, u tarixga "Muqaddima" nomi bilan kirgan. Aslida "Muqaddima" nomi asarning so'nggi bobiga tegishlidir. SHunday bo'lsada, XV asr turk poligistri Xoji Xalif o'zining bibliografik to'plamida ushbu asarga "Muqaddima" nomini qo'ygan.¹⁷ Ibn Xaldun o'z asarini yangi fan sifatida talqin etadi, bu fan kishilarning ijtimoiy hayoti va kishilik jamiyatini o'rganadi, deb biladi: "Bu fanning markaziy masalasi tarixni harakatlantiruvchi kuchlari va umumiy qonuniyatlaridir. SHu sababli tarix falsafaning asoslaridan biri va u falsafiy fanlar qatoriga qo'shilishi kerak va bunga munosib", - deb yozadi.¹⁸

Sivilizatsiyalar bir - biridan takomillashganlik darajasi bilan farqlanadi.¹⁹ Tarix falsafasi sohasida katta tadqiqotlarni amalga oshirgan tarixshunos faylasuf olim Ibn Xaldun esa sivilizatsiyani kishilarning ijtimoiy hayoti sifatida

¹⁶ "Очерки истории арабской культуры У-ХУ вв. Главная редакция восточной литературы.- М.:Наука, 1982.- С. 311.

¹⁷ "Очерки истории арабской культуры У-ХУ вв. Главная редакция восточной литературы.- М.:Наука, 1982.-С. 322.

¹⁸ Ўша жойда. 322-323 б. бўйича келтирилди.

¹⁹ Ўша жойда. 322-323 б. бўйича келтирилди.

tushungan va uni “umron”, deb atagan. Uning fikricha, umron kishilarning birgalikdagi ijtimoiy faoliyatini tashkil etadi va ikki turga bo‘linadi: “badaviy hayoti” va “shahar hayoti”. Birinchisi oddiy va darajasi past, boshqalar bilan kam bog‘langan, ikkinchisi esa turli-tuman bo‘lib, hayotning yuqori bosqichidir. Quyi fazadan yuqoriga o‘tish, ya’ni shaharga borib yashash uchun badaviylar ma’lum moddiy boylik yig‘adilar, ular shahardagi qulaylik, boylikka o‘rgana borib, shaharcha tabiiy hayotga kirib boradilar va to‘la u erga ko‘chib keladilar. “Umron” tushunchasi adabiyotlarda sivilizatsiya, madaniyat sifatida tarjima qilingan. Umron, muallifning fikricha, narsa ham, natija ham emas, u kishilar va avlodlarning hayot faoliyati jarayoni. Tarix esa avlodlar almashinuvi hamda sivilizatsiyalarning yuksalishi va pasayishida aks etadigan notekis chizikli qonuniy jarayon. Sivilizatsiya taraqqiyoti kishilarning moddiy ishlab chiqarish sohasidagi mahalliy, o‘ziga xos mehnat faoliyati va moddiy boylik yig‘ishlari bilan bog‘liq. Bu narsa ularning turmush tarzini ham belgilaydi.²⁰ Badaviylar hayotini a)dehqonchilik yoki hunarmandchilik xo‘jaligi; b) hayot va madaniyatning past ishlab chiqarish va iste’mol darajasi; v) ma’lum muhit va sharoitga bog‘lanib qolganlik; g)shaharga siyosiy va iqtisodiy qaramlik belgilaydi. SHahar hayotini esa a)hunarmandchilik yoki savdo-sotiq bilan shug‘ullanish; b)xo‘jalik, iste’mol va madaniyatning yuqori darajasi; v) xavfsizlikning yuqori darajasi; g) iqtisodiy va siyosiy jihatdan badaviylar hayotiga bog‘liq emaslik belgilaydi. Taraqqiyotni aholi sonining o‘sishi, shaharda ishchi kuchining to‘planishi va mehnatning, ya’ni ishlab chiqarishning rivojlanishi belgilaydi. Ikkala fazaning ham o‘ziga xosligi va shart-sharoitlari kishilarning psixologik xususiyatlari, ko‘nikmalari va axloqiy qoidalarini belgilaydi.²¹

²⁰ Очерки истории арабской культуры У-ХУ вв. Главная редакция восточной литературы.М.:Наука, 1982. -С.340-341.

²¹ Очерки истории арабской культуры У-ХУ вв. Главная редакция восточной литературы.М.:Наука, 1982. -С. 342-354.

SHpengler va Toynbi nazariyasi. Sivilizatsiya sohasida tadqiqotlar olib borgan yirik tadqiqotchi olimlar tarixning sivilizatsiyalar almashinuvi asosida rivojlanishi nazariyasini ilgari surganlar. O.SHpenglarning “Evropaning so‘nishi”, (“Zakat Evropy”), A.Dj.Toynbining “Tarixni anglash”, “Postijenie istorii” N. Danilevskiyning “Rossiya va Evropa”, P.A. Sorokinning “Hozirgi zamon sotsiologik nazariyalari” (“Sotsiologicheskie teorii sovremennosti”) va S.Xantingtonning qayd etib o‘tilgan “Sivilizatsiyalar to‘qnashuvimi ?” (“Stolknovenie sivilizatsiy?”), “Biz kimmiz? Amerika milliy identifikatsiyasining chaqiriqlari” (“Кто мы est? ВЫЗОВЫ америкaнскоy natsionalnoy identichnosti”) asarlariga murojaat qilsak, ular jamiyat taraqqiyotining o‘zi turli xil sivilizatsiyalarning ketma-ket almashinuvidan iborat ekanligini ta’kidlab o‘tganlar.²²

Mazkur asarlarda tarixiy jarayonga sivilizatsiyalarning almashinuvi sifatida yondashuvga asos solindi. Ushbu nazariyalarni birlashtirgan holda tarixning sivilizatsiya nazariyalari, deb aytilsa bo‘ladi. Mazkur nazariyalarni ham ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchisi, sivilizatsiyani tarixiy jarayonning bosqichi va tarix ularning ketma-ketligidan iborat, deb qarab ko‘proq umumiylikka urg‘u bersa, ikkinchisi tarixni lokal sivilizatsiyalar tarixidan iborat, deb hisoblaydi hamda individuallik va o‘ziga xoslikka urg‘u beradi.

SHpengler insoniyat tarixini bir–biridan farq qiluvchi va qaytarilmas sivilizatsiyalarning almashinuv jarayonidan iborat, deb tasvirlagan. Har bir sivilizatsiyaning asosida ma’lum bir madaniyat yotadi. Madaniyat tirik organizm kabi tug‘ilish, o‘sinh (rivojlanish) va so‘nish bosqichlarini bosib o‘tadi. Har bir madaniyat o‘ziga xos, u so‘nayotib sivilizatsiyaga aylanadi. Bunday madaniyat (sivilizatsiya) har xil bo‘lib, ularning har biri ming yil yashaydi. SHpengler tarixda sivilizatsiyaning quyidagi shakllari mavjud bo‘lganini ta’kidlaydi: Misr, Vavilon, Hindiston, Xitoy, Gretsiya-Rim (apollon), arab, Meksika va G‘arb (Faust).

²² Қаранг: Данилевский Н. Россия и Европа.М.: Книга, 1991;Шпенглер О. Закат Европы. Т.1. (Пер.с немецкого).Новосибирск.: Наука,1993; Тойнби А.Дж. Постижение истории.Сборник (Пер.с англ.)М.: Прогресс,1991, Цивлизация перед судом истории.М.:Прогресс;Культура, 1995; Хантингтон С.Столкновение цивилизаций?//Полис.1994. № 1.

SHpenglerdan soʻng Toynbi esa insoniyat tarixini bir – biriga zanjirsimon tarzda almashtiruvchi yigirma bitta sivilizatsiyalar tarixiga boʻlgan holda tasavvur etadi. Ular and, xitoy, minoy, shumer, mayya, hind, ellin, gʻarb, pravoslav (Rossiya), uzoq sharqiy (Koreya, YAponiya), eron, arab, induizm, meksika, yukatan va vavilon sivilizatsiyalari. “Taniqli sivilizatsiyalar soni koʻp emas, biz 21 ta sivilizatsiyani aniqladik, lekin ularni chuqurroq tahlil etish mustaqil sivilizatsiyalarning sonini yanada kamroq ekanligini koʻrsatadi.”²³ Bu sivilizatsiyalar dini va hududiy belgilar bilan farqlanadi. Ulardan har birini oʻz qadriyatlar tizimi mavjud boʻlib, ularning atrofida sivilizatsiyalarning hayoti shakllanadi. Sivilizatsiyalar tugʻilish, rivojlanish, sinish va emirilish davrlarini bosib oʻtadi. Bu sivilizatsiyalardan har birining oldida chaqiriq va javob muammosi turadi. Tabiiy yoki insoniy muhit sivilizatsiya oldiga oʻz chaqirigʻini qoʻyadi. Jamiyatning kelgusi hayoti esa sivilizatsiyaning chaqiriqqa javob bera olish qobiliyati bilan bogʻliq.

Barcha chaqiriqlar ikkiga boʻlinadi: tabiiy muhit va insoniy muhit chaqiriqlari. Ularning quyidagi shakllari mavjud: qattiq iqlim, yangi erlar, atrof kishilik jamiyati tomonidan kutilmagan hujumlar, doimiy tashqi bosim va kamsitishlar. Toynbi ularning asosiy formulasini ishlab chiqadi: “CHAqiriq qanchalik kuchli boʻlsa, stimol ham shunchalik kuchli boʻladi”. Toynbi har bir sivilizatsiya oʻziga xos stilga ega, deb hisoblaydi. Bunday stillar turlicha boʻlib, sivilizatsiyalar estetik, diniy, texnikaviy tendensiyalarni ifoda etishlari mumkin. Masalan Gʻarb sivilizatsiyasi koʻproq mashinaviy ishlab chiqarish, aniq fanlarning kashfiyotlaridan samarali va ijodiy foydalanishga yoʻnalganligi bilan tavsiflanadi. “Biz endi bu bizning Gʻarb jamiyatining bosh liniyasi ekanligini his qilibgina qolmayapmiz, toʻla va aniq anglayapmiz. Biz Gʻarb energiyasi harakatlanayotgan vaqt yoʻnalishining davomiyligini ham aniq belgilay olmasligimiz mumkin. Baʼzan bizga mashina asrini bir yarim yuz yillikdan

²³ Тойнби А.Дж. Постигание истории. Сборник (Пер.с англ.) М.: Прогресс,1991. -С.67.

ko‘proq vaqt avval boshlangan G‘arb sanoat inqilobi ochib bergandek tuyuladi”²⁴.

Toynbi xalqlarning tarixi ularning o‘z sivilizatsiyasiga ega ekanligi bilan bog‘liqligini ta’kidlab, sivilizatsiya sifatida yuzaga kelgan, ammo ayrim sabablarga ko‘ra bu sivilizatsiyalar taraqqiyotdan to‘xtab qolganligi sababli ularning tarixi ham to‘xtab qolgan, deb hisoblaydi. Chunki ularning o‘z-o‘zini aniqlashga, o‘zini ifoda etishga va shu orqali yuksakroq taraqqiy etgan madaniyat darajasiga ko‘tarilish uchun imkonlari bo‘lmagan. “Toynbining pozitsiyasini madaniy plyuralizm – insoniyat tarixi alohida olingan yakka ijtimoiy tashkilotlarning (“sivilizatsiyalarning”) majmuasini tashkil etishiga ishonish sifatida tavsiflash mumkin. Ularning har biri o‘zining qaytarilmas yo‘llarini bosib o‘tadi va hayotini to‘la belgilab beruvchi o‘ziga xos qadriyatlar tizimiga ega.”²⁵

Aslida Toynbi SHpengler nazariyasini davom ettiradi. Butun dunyoning umumiy tarixiga nisbatan SHpenglarning sivilizatsiyalar almashinuvi nazariyasini, alohida olingan jamiyatlarga nisbatan Toynbining lokal sivilizatsiyalar nazariyasini qo‘llash, bizningcha to‘g‘riroq bo‘lsa kerak. Har bir sivilizatsiya murakkab tuzilgan bir butun tizimdan iborat bo‘lib, unda turli elementlar o‘zaro bog‘langan va aloqada bo‘lgan tarzda aks etadi. Demak, sivilizatsiyalar va madaniyatlar haqida so‘z yuritilganda ularning har biriga konkret yondashuv talab qilinadi. Sivilizatsiyalarning almashinuvi tarixiy taraqqiyotni belgilaydi. Sivilizatsiyalar o‘zgaradi, yo‘qoladi, lekin ularning madaniyat bilan bog‘liq bo‘lgan asosi, o‘zagi saqlanib qoladi. Ana shu o‘zak asosida bir-biridan farq qiluvchi sivilizatsiyalar yana yangicha ko‘rinishda rivojlanadi.

Nemis faylasufi Karl Yaspers (1883-1969) ham o‘z asarlarida dunyo tarixining yagonaligi masalasiga e’tibor qaratadi. Uning fikricha, insoniyat doirasida turli millatlar va mamlakatlar bor bo‘lishiga qaramay, u yagona

²⁴ Тойнби А.Дж. Постигение истории. Сборник (Пер.с англ.)М.: Прогресс,1991. -С. 239.

²⁵ Ивин А.А.Философия истории. М., Гардарики 2000. -С.15.

tarixga ega. Insoniyatning kelib chiqishi va maqsadlari yagona. Insoniyat umumiy maqsadga egaligi sababli ham uning tarixi yagona. Butun tarix bir-birining o'rnini bosuvchi uchta fazaga: tarixgacha bo'lgan davr, tarix va dunyo tarixiga bo'linadi. Dunyo tarixi dunyoning va insoniyatning global birligidan boshlanadi²⁶.

Tarix fazasida – er. avvalgi o'q davrda, ya'ni 800-200 yillarda hozirgi zamon odami paydo bo'ldi va tarixda keskin burilish boshlandi, dunyo tarixining asosi, o'qi tashkil topdi. Bungacha mavjud bo'lgan arxaik madaniyat lokal xarakterga ega bo'lgan bo'lsa, endi madaniyat universallashtira boshladi. SHu orqali insoniyat "... huquqiy tartibga solingan, moddiy va ma'naviy cheksiz yashashga intiluvchi birlikka erishadi"²⁷. Ko'rinib turibdiki, YAspers yashagan davrda globallashtiruv muammolari bugungidek dolzarb turmagan bo'lsa-da, u ushbu jarayonning sur'atlari tezlashib borayotganini oldindan ko'ra bilgan. SHu bilan birga, YAspers XX asrning xavflaridan biri - xalqning ommaga aylanib qolishi va omma ichida inson o'zini yo'qotib qo'yishi mumkin, deb ta'kidlab o'tgan edi²⁸.

“Sivilizatsiya” tushunchasi hozirgi kunda eng ko'p qo'llaniladigan so'zlardan biriga aylangan. Bu so'zni tadqiqotchilar turli ma'nolarda qo'llamoqdalar. Ushbu tushuncha evolyusiyasining tarixiga nazar solsak, bu tushuncha fransuz tarixchi olimi L.Fevrning aytishicha, birinchi marta 1766 yilda Fransiya ma'rifatparvarlari va Angliya ma'rifatparvarlari tomonidan 1773 yillarda qo'llangan. “Madaniyat” tushunchasi esa ilk marotaba 1774 yilda ilmiy muomalaga kiritilgan.²⁹ “Sivilizatsiya” tushunchasining o'zagi lotincha “civis” bo'lib, “shaharlik”, “shaharlashish” ma'nolarini anglatadi. Dastlab bu tushuncha “silvaticus”, ya'ni “yovvoyi”, “qo'pol” tushunchalariga qarshi qo'yilgan. YAngi davrga kelib “sivilizatsiya” “madaniyat”ning sinonimi sifatida ham qo'llanila boshlandi. Hozirgi davrda ham u madaniy, iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotning bosqichi sifatida tushuniladi.

²⁶ Ясперс К. Истоки истории и ее цель. Вып. 1-2. М., 1991. -С. 120.

²⁷ Ўша жойда. С. 63.

²⁸ Ясперс К. Истоки истории и ее цель. Вып. 1-2. М., 1991. -С. 196-197.

²⁹Февр Л. Цивилизация: эволюция слова и группы идей // Бой за историю. М.: Наука. 1991. 242-247 б.

Ijtimoiy fanlarda marksistik qarash doirasida ancha vaqtgacha sivilizatsiyani insoniyat taraqqiyotida varvarlik va yovvoyilik bosqichidan haqiqiy insoniyat tarixi bosqichiga o'tish sifatida tushunilgan. Ana shunday qarashlar Amerika antropologi va ibtidoiy jamiyatni o'rgangan tarixchi L.Morganning "Qadimgi jamiyat" va nemis marksist olimi F.Engelsning "Oila, xususiy mulk va davlatning kelib chiqishi" asarida aks etgan. F.Engelsning fikricha, sivilizatsiya oila, xususiy mulk, sinflar va davlatning paydo bo'lishi bilan bog'liq tarzda taraqqiy etgan.

Demak, XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab "sivilizatsiya" va "madaniyat" tushunchalari farqlana boshlandi. Dastlab sivilizatsiya yuksak iqtisodiy, madaniy – ma'naviy taraqqiyotni, ko'p jihatdan diniy taraqqiyotni anglatgan bo'lsa (masalan, SHpenglarning fikricha, har bir sivilizatsiyaning asosida din yotadi), keyinroq ma'naviy taraqqiyot ko'proq madaniyat bilan bog'lana boshlandi. Madaniyatning mohiyati endi yuksak sivilizatsiya hamda uning qo'lga kiritgan ulkan yutuqlarini ifoda etuvchi ma'naviyat shakllari va darajasi bilan bog'lana boshlandi.³⁰

Ta'kidlab o'tish o'rinliki, sobiq SSSR da marksistik mafkura doirasida sivilizatsiya va madaniyat sohasida qilingan tadqiqotlarda madaniyatning moddiy va ma'naviy turlari e'tirof etilgan bo'lsa-da, unga asosan tarixiy materializm nuqtai nazaridan yondashildi, ya'ni har qanday sivilizatsiya va madaniyat taraqqiyoti, umuman jamiyatning madaniy taraqqiyoti eng avvalo, iqtisodiyot va moddiylik bilan bog'landi. SHu sababli ham bu davrda ma'naviyat sohasi va uni tahlil etishga etarli e'tibor berilmadi. Bu sohada ayrim ilmiy asarlarni³¹ hisobga olmaganida, chuqur ilmiy-falsafiy tadqiqotlar olib borilmadi. Bularning oqibatida barcha sohalarda bo'lgani kabi sivilizatsiya va madaniyat sohaslarini tadqiq etishda ham faqat materialistik yondashuv qaror topdi.

³⁰Будагов Р.А. История слов в истории общества. М.:Наука, 1971.-с. 124-126 .

³¹ Духовный мир развитого социалистического общества. -М.: 1977; Спиркин А.П. Сознание и самосознание.-М.: Мысль,1977; Барулин В.С. Соотношение материального и идеального в обществе .-М.: 1977; Уледов А.К. Духовная жизнь общества.-М.: 1980; Духовное производство. -М.: 1981; Лекторский А.А. Субъект, объект, познание. -М.: 1980; Творческая природа социалистического общественного сознания. -М.: 1980 ва бошқалар.

So‘nggi vaqtlarda globallashuvga oid bo‘lgan ko‘pchilikka tanish bo‘lgan “sivilizatsiyalar to‘qnashuvi” to‘g‘risidagi nazariya keng tarqaldi. Unga Garvard universiteti professori S.Xantingtonning “Sivilizatsiyalar to‘qnashuvimi?” (“Stolknovenie sivilizatsiy ?”) nomli maqolasi sabab bo‘ldi. Bu maqolada S.Xantington sivilizatsiyalar o‘rtasida tarixiy, til, madaniy, an’anaviy va diniy tafovutlarning mavjudligi, ular asrlar davomida shakllanganligi va yaqin vaqtda yo‘qolib ketmasligi, aksincha ular tobora kuchayib borayotganligi va buning natijasida sivilizatsiyalar to‘qnashuvi kelib chiqishi mumkinligi haqidagi xulosaga keladi.

S.Xantingtonning fikricha, so‘nggi yuz yillik davomida kelib chiqqan urushlar sivilizatsiyalar o‘rtasidagi konfliktlar sababli yuz bergan. Madaniy xususiyatlar iqtisodiy va siyosiyliklariga nisbatan eng kam o‘zgaruvchan bo‘lib, ularni hal etish yoki bu sohada kelishuv tuzish qiyin. “Fikrimcha, shakllanayotgan dunyoda na mafkura va na iqtisodiyot mojarolarning asosiy manbai bo‘lib xizmat qiladi. Insoniyatni ajratib turgan eng muhim chegaralar, ixtiloflarning yirik manbalari madaniyat bilan belgilanadi. Millat – davlat xalqaro ishlardagi bosh sub’ektligicha qoladi, lekin umumbashariy siyosatning katta mojarolari turli sivilizatsiyalarga tegishli millat va elatlar o‘rtasida yuzaga keladi.

Madaniyatlararo to‘qnashuv jahon siyosatining etakchi omiliga aylanadi. Tamaddunlar orasidagi ajralish nuqtalari kelgusida frontlarning aynan o‘zginasidir. Madaniyatlararo mojaro hozirgi dunyodagi global nizolar evolyusiyasining yakunlovchi bosqichi bo‘ladi³². S.Xantingtonning fikricha, yuz yillar davomida tarixni davlatlar yaratar edilar. XX asrda ularning o‘rnini totalitar mafkura egalladi, XXI asr bo‘lag‘asida siyosatni madaniyatlar to‘qnashuvi belgilaydi. Sinfy yoki mafkuraviy konfliktlarda “Sen kim tomonidasan?”, degan savolga inson o‘zining tanlovi asosida javob berishi mumkin bo‘lgan bo‘lsa, etnik va diniy konfliktlarda esa u “Sen o‘zi kimsan?”,

³² Хантингтон С. Столкновение цивилизаций? // Полис. 1994. № 1.

degan savolga javob berishi zarur. YA'ni gap avvaldan berilgan va o'zgaraydigan narsalar haqida ketyapti.³³

S.Xantingtonning yana bir asari "Biz kimmiz? Amerika milliy identifikatsiyasining chaqiriqlari" ("Кто мы есть? Вызовы американской национальной идентичности") deb nomlanib, muallif unda AQSH ning ijtimoiy hayotida mavjud bo'lgan ziddiyatlarni Amerikaning yangi "dushmanlari" bilan bog'lashga harakat qiladi. Bu dushmanlar janubdan, katolik e'tiqodiga ega bo'lgan Lotin Amerikasidan, birinchi navbatda Meksikadan Amerikaga kelib qolgan immigrantlar bo'lib, ular Xantingtonning fikricha, Amerika xalqining millatlik mavqeiga (etnomavqeiga) salbiy ta'sir etmoqdalar. Ular hozirda 7,8 mln. kishini tashkil etadi va mamlakat uchun eng asosiy xavfni tug'diradi. Ular bilan amerikaliklarning qurgan nikohlari mamlakatda barqaror guruhlarning shakllanishiga olib keladi va ular mohiyati Evropa sivilizatsiyasiga qarshi bo'lgan multikulturalizm g'oyalarining tarqalishi uchun kuchli manba bo'lib xizmat qiladi.

SHu bilan birga Xantington Amerikani dastlab egallagan kishilar bu immigrantlardan farq qilgan holda yangi jamiyat qurilishini amalga oshirishga intiluvchi o'ziga xos axloqiy doktrinaga ega bo'lgan mustamlakachilar hamjamiyatini tashkil etadi, immigrantlar esa yangi jamiyat yaratmaydilar, faqat bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yuradilar, deb ta'kidlaydi.³⁴ Bundan tashqari Xantingtonning fikriga ko'ra amerikaliklar o'ziga xos, tanlab olingan (saralangan) xalq bo'lib, ularning hayotiy tamoyillari universaldir, demak, bu tamoyillarning tarqalishi va Amerika ekspansiyasi ham o'zini oqlaydi. Immigrantlar rolining jamiyatda ortib borishi amerikalashtirish g'oyasiga qarshi. Ularning katolik dini esa amerikaliklarning diniy identifikatsiyasiga ziddir (protestantlikka).³⁵

³³ Ўша жойда.

Қаранг: Хантингтон С. "Кто мы есть? Вызовы американской национальной идентичности" - М.: ООО «Издательство АСТ»; ООО «Транзит-книга», 2004. Цитата Иноземцев В.Л. Хантингтон С. Кто мы есть? Вызовы американской национальной идентичности. Иноземцев В.Л Вопросы философии. 2004. № 10 177-182 б.бўйича берилди.

³⁵ Ўша жойда. 179-180 б.

Ko‘rinib turibdiki, muallif ushbu asarida endi sivilizatsiyalar to‘qnashuvi haqida emas, aksincha, Amerika madaniyati va turmush tarziga amerikalik bo‘lmagan ko‘p sonli immigrantlarning ta‘siridan xavotirga tushmoqda. (Bu erda Xantingtonni Amerikadagi 1950 y. tashkil etilgan “Mavjud xatarlarni o‘rganish komiteti” nomli uyushmaning a‘zosi ekanligini eslatib o‘tish lozim. Bu uyushma bo‘lishi mumkin bo‘lgan, faraz qilinayotgan xatarlarni o‘rganish bilan shug‘ullanadi). Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, Xantington sivilizatsiyalar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi fikriga o‘zi qarshi chiqmoqda. Chunki uning keyingi asarida bayon etgan fikrlari chuqurroq tahlil qilinsa, gap aynan sivilizatsiyalarning to‘qnashuvi haqida emas, aksincha ularning munosabati to‘g‘risida borayotganini anglaymiz.

Amerikalik olim O.Toffler ham kelajak to‘g‘risida sivilizatsiyalar to‘qnashuvi ma‘nosida bo‘lmasa ham shunday fikrga yaqin bo‘lgan pessimistik farazlar qilgan. U insoniyat tarixida uchta bosqich - uchta to‘lqinni ajratib ko‘rsatadi. Birinchisi–agrar sivilizatsiya, ikkinchisi – industrial sivilizatsiya va XX asrdan boshlab uchinchi to‘lqin – yangi sivilizatsiya boshlangan bo‘lib, u sanoat inqilobi bilan bog‘liq. Uchinchi to‘lqin o‘zigacha mavjud bo‘lgan an‘anaviy sivilizatsiyaga zid bo‘lib, uni butunlay izdan chiqarib yuboradi va o‘zi bilan birga yangi turmush tarzini olib keladi. Bunday o‘zgarishlar kelajakni “shok” holatiga tushirib qo‘yadi.³⁶

Insoniyat tarixi va turli madaniyatlarning taraqqiyot tarixiga e‘tibor bersak, tarixiy jarayonda siyosiy kelishmovchiliklar, turli qonli urushlar uning doimiy hamrohi bo‘lib kelganini anglaymiz. Qadimgi davridayoq ular davlatlar o‘rtasidagi ulkan makonlarni egallaganlar. Ularning natijasida yangi davlatlar paydo bo‘ldi, ayrimlari yo‘qolib ketdi. O‘rta asrlar va Yangi davrga kelib esa qonli urushlar yanada ko‘paya bordi, ular yanada uzoqroq davom etadigan bo‘ldi. XX asrga kelib esa bunday urushlar barcha mamlakatlar va millatlarni o‘z domiga tortib global mohiyat kasb etib jahon urushlariga aylandi. Masalan,

³⁶ Баталов Э.Я. Между прошлым и будущим. О книге Олвина Тоффлера “Третья волна”. Иностранная литература, 1981, № 9; Яковец Ю. История цивилизаций. М.:Владос, 1997. С.40.

birinchi jahon urushida 38 mamlakat, 70 milliondan ziyodroq askarlar ishtirok etib, halok bo'lganlar soni 10 million, yarador bo'lganlar esa 20 millionni tashkil etdi. Ikkinchi jahon urushi esa undan ko'ra qonliroq bo'ldi: unga o'z istaklariga qarshi tarzda hududida dunyoning 80 % aholisi yashaydigan 61 nafar davlat tortildi. Urush harakatlari Eroosiyo, SHimoliy Afrika va Okeaniyaning ulkan quruqlik va suvlik hududini egalladi. Ularda jami 110 milliondan ziyod kishi ishtirok etdi va 65 millionga yaqin kishi halok bo'ldi.

YUqoridagi statistik ma'lumotlarni keltirishdan maqsad bu urushlarning ulkan bo'lishiga qaramasdan, ularda tom ma'nodagi madaniyatlar yoki sivilizatsiyalar ishtirok etmaganligini ko'rsatishdan iborat. Tarixda yuz bergan urushlarning aksariyati eng avvalo, harbiy mohiyatga va o'z davrining ruhiga mos ravishda geosiyosiy mohiyatga ega bo'lgan. Bunday urushlar yagona sivilizatsiya doirasida ham ko'p marotalab yuz bergan. Ular madaniyatlararo va sivilizatsiyalar o'rtasidagi etnik, milliy yoki diniy qarama – qarshilik yoki to'qnashuv sifatida namoyon bo'lmagan. Demak, bu urushlar madaniyatlararo yoki sivilizatsiyalararo to'qnashuvlarni ifoda etmaydi: o'nlab davlatlar va millionlab kishilar ishtirok etgan jahon urushlarini ham sivilizatsiyalar to'qnashuvi sifatida e'tirof etib bo'lmaydi. Gitler Germaniyasining aybi bilan boshlangan ikkinchi jahon urushida xristianlik tarqalgan bir qancha Evropa davlatlari ham Germaniyaga qarshi urush olib borganlar. Sivilizatsiya nuqtai nazaridan ular xristianlik sivilizatsiyasi doirasida bo'lib o'tgan.

YOki yana bir misol: Buyuk Ipak yo'li ko'plab millatlarning tarixida alohida rol o'ynagan, deyish mumkin. Bu yo'l SHarqni Evropa bilan bog'lashda asosiy rol o'ynagan. Uning ta'sirida Evropaga yangicha madaniyat kirib borgan. Rimlik olim G.Pliniy o'zining "Tabiat tarixi" asarida yozishicha, pillachilik G'arbga Buyuk ipak yo'li orqali miloddan avvalgi U- asrda tarqalgan. Jumladan, Rim imperiyasiga olib kelingan ipak matolar uchun Rim 3,5 ming tilla tangasini sarf etgan. Uning natijasida Rimda tanga tanqisligi yuzaga kelib, hukumat ipak matolar va boshqa mahsulotlarni cheklash haqida qaror qabul qilishga majbur

bo'lgan.³⁷ Bu yo'l orqali bog'langan mamlakatlarda yangicha madaniyat, kiyimlar, hunarmandchilik va qishloq xo'jaligi mahsulotlari paydo bo'lgan. Bunday bog'lanish nafaqat iqtisodiy – madaniy sohada, hatto etnik munosabatlarda ham katta iz qoldirgan. O'zbek tarixchi olimi A.Xo'jaevning yozishicha, milodning dastlabki asrlarida Turkiya va SHarqiy Turkiston orqali Xitoyga buddaviylik kirib borgan. U111 asrdan boshlab esa, islom kirib kela boshladi. Bu borada Xitoyga borib o'troqlashib qolgan musulmonlarning roli katta bo'ldi. Buning natijasida Xitoyda “dungan”, “tungan” (turib qolgan so'zidan kelib chiqqan), deb ataluvchi yangi etnos shakllangan. Ushbu etnos tarkibiga turkiylar, arablar, forsiylar va boshqa xalqlar vakillari qo'shilganlar. Hozirda soni 8 millionga yaqin ushbu etnosni islom dinining Xitoyga tarqalishi natijasi, deb qarash mumkin.³⁸

O'rta Osiyoga CHingizxon boshchiligidagi mo'g'ullarning bostirib kelishini ham (hatto u Markaziy Osiyo madaniyatiga katta ta'sir, aniqrog'i, salbiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsada) sivilizatsiyalar o'rtasidagi to'qnashuv sifatida e'tirof etish noto'g'ri bo'ladi. Umuman, insoniyat tarixida bo'lib o'tgan urushlarga e'tibor bersak, ular sivilizatsiyalarning to'qnashuvi sifatida emas, ko'proq harbiy-siyosiy to'qnashuvlar sifatida namoyon bo'lib, ular oldiga sivilizatsiyalar bilan bog'liq bo'lgan muammolarni asosiy maqsad sifatida qo'ymaganlar. Iqtisodiy va siyosiy ta'sir natijasida madaniyat sohasida ham ijobiy va ba'zan salbiy mohiyatga ega bo'lgan o'zgarishlar ro'y bergan. Jumladan, Markaziy Osiyoda mo'g'ul bosqinidan keyingi vayron bo'lgan shahar va qishloqlarni qayta tiklash uchun bir necha asrlar kerak bo'ldi.

Madaniyatning asosini tashkil etuvchi turli milliy va diniy ta'limotlarni solishtirganda ham shu narsani kuzatish mumkinki, shakl jihatdan farqlansa ham, hodisa sifatida ularning mohiyati va asosiy g'oyalari bir-biriga yaqin: ularning barchasi ham ezgulikni, yaxshilikni targ'ib etadi. Ularning birortasi ham boshqa millatlar yoki dinlarga qarshi urushga chaqirmaydi.

³⁷ A.Xўжаев. Буюк ипак йўли. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти. Т., 2007. 91-99 б.

³⁸ Ўша жойда. 91 б.

To‘qnashuvlar asosan sub’ektlarning xohishi va tashabbuslari bilan yuz berishi mumkin. Siyosiy sub’ektlar yoki hukumatlar o‘rtasida nizolarning kelib chiqishi doim ham millatlar va madaniyatlararo ziddiyatlarga olib kelmaydi. Bundan tashqari demokratiya keng rivojlanmagan davlatlarda esa siyosiy sub’ektlar va hukumat doim ham davlatning barcha aholisining manfaatlarini ifoda etmasligi mumkin.

2-bob. O‘zbekistonning jadal taraqqiyot davri tarixida globallashuv jarayonining o‘rni

2.1. Globallashuvning kelib chiqishi va evolyusiya bosqichlari

Bizningcha, globallashuvning ildizlari, aniqrog‘i, oddiy shakllari insoniyat tarixida dastlab turli ijtimoiy hodisalar qatori yoki boshqacha qilib aytganda, ularning biri –sifatida yuzaga kelgan. Keyinchalik bu jarayon insoniyatning taraqqiyoti - millatlarning shakllanishi, jamiyatda millatlararo hamda madaniyatlararo iqtisodiy – ijtimoiy va siyosiy – madaniy munosabatlarning kengayib borishi va rivojlanishi natijasida insoniyat tarixining ajralmas hamda muhim qismiga aylangan. SHu bilan birga u tobora ob‘ektivlik va qonuniylik xususiyatlariga ega bo‘lib borgan.

Globallashuvning alohida hodisa sifatida yuzaga chiqqan davrni uning boshlanish davri, deb aytish mumkin. Bu nuqtai nazardan ushbu jarayon tabiiy va qonuniy xususiyatga ega bo‘lgan mustaqil jarayondir. Jamiyat va inson taraqqiy etgan sari globallashuvning sur‘atlari ham tezlashib borgan. Xulosa shuki, jamiyat tarixining qadimiy bosqichida davlatlararo, millatlararo va demak, madaniyatlararo munosabatlarning shakllanishi davrida globallashuv jarayonining boshlanishiga asos solingan.

Aytish kerakki, ushbu jarayonning namoyon bo‘lishi jamiyat taraqqiyotining bosqichlarida turlicha bo‘lib, u o‘zida mazkur tarixiy davr bosqichining mohiyati, xususiyati va tendensiyalarini ifoda etadi. Globallashuvning deyarli XIX-XX asrgacha bo‘lgan davrini aynan globallashuv bosqichi emas, integratsiya bosqichi, deb aytilsa bizningcha, to‘g‘riroq bo‘ladi. Bu ma’noda ushbu integratsiya bosqichi bugungi globallashuvning asosi, yoki quyi darajasini tashkil etadi. XX asrning oxirlari va XXI asrning boshlariga kelib ushbu jarayonning tendensiyalari yanada yaqqol, dadil va uning borish sur‘atlari tezroq namoyon bo‘la boshladi. Endi tabiiy, ob‘ektiv va qonuniy xususiyatlarga ega bo‘lgan globallashuv unga turli sub’ektlarning aralashuvi natijasida tobora sun‘iy, ayrim davlatlarning gegemonlikka intilishi bilan bog‘liq bo‘lgan nogumanistik xarakter kasb eta boshladi.

Globallashuvning ta'sir doirasi kengayib borgan sari u ijtimoiy hayotning turli sohalaridagi bir qator hodisalarni o'ziga birlashtiruvchi jarayonga aylandi. Globallashuv hodisadan jarayonga aylanib borishi davomida tizimiy va qonuniy xususiyatlarga ega bo'lib bordi. U qay darajada turli hodisalarni qamrab borishi evaziga uning tizim sifatidagi mohiyati yanada ko'proq namoyon bo'la boshladi. Globallashuv tizimiga birlashgan hodisalarning namoyon bo'lishi xususiyatlari ham turlicha bo'lishi mumkin. Ularning ayrimlari ba'zan etakchi, ba'zan passiv holda o'zini ifoda etadi. Ularning faol namoyon etganlari, ta'sir kuchi ko'proq bo'lganlari keyinroq (ko'p hollarda) hodisalik xususiyatlarini o'zgartirib, mustaqil jarayonga aylanib ketishlari ham mumkin. Masalan, iqtisodiy, siyosiy globallashuv, yoki keyinroq madaniy globallashuvni olsak, ular dastlab globallashuv jarayonining elementi sifatida o'zini namoyon etgan bo'lsalar, hozirgi davrda nafaqat globallashuvning elementi yoki shakli, aksincha mustaqil jarayon sifatida yuzaga chiqmoqda va o'zlari ham yana bir qancha elementlarni qamrab olmoqda.

Globallashuv jarayonining kelib chiqishi masalasi bo'yicha ham qarashlar turli-tumandir. Jumladan, Xonazarov Q.X globallashuvning til sohasiga ta'sirini tadqiq qila borib, bu jarayonning deyarli XX asrning o'rtalarigacha kechishi tabiiy xarakterda bo'lganligi va ko'proq lokal hamda epizodik xususiyatga ega bo'lganligini va hozirgi kunga kelib esa u jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olayotganligini ta'kidlaydi.³⁹

O.Ata-Mirzaev, V.Gentshke, R.Murtazaeva ham globallashuv kelib chiqishining ildizlari qadimiy ekanligini ta'kidlaydilar: "Qadimiy imperiyalar polietnik davlatlar sifatida globallashuvning birinchi namunalaridir. Ularda turli tillarda so'zlashuvchi, har xil irq va madaniyatga mansub bo'lgan kishilar yonmayon qo'shni bo'lib yashaganlar... Axmoniyalar mintaqalararo dunyoviy imperiyasi globallashuvning birinchi namunasi hisoblanib, u o'zida qisman uchta mintaqaning – Osiyo, Afrika va Evropa hududlarini egallagan edi. Axmoniyalar davlati

³⁹ Ханазаров К.Х. К проблеме философии языка.-Т.:Узбекистан, 2007.-С.50.

satraplarga bo‘lingan edi. Gerodotning ma’lumot berishicha, O‘rta Osiyo viloyatlari X1, X11, XU satraplarga kirar edi”⁴⁰.

Utkin A.I. globallashuvning rivojlangan davrini XIX va XX asrlar, deb hisoblaydi. Fedotova V.G.ning fikricha, “globallashuvning birinchi qadamlari XIX asr, tarixning butun dunyo tarixiga aylanishi bilan bog‘liq edi, ammo XIX asr globalizatsiyasi G‘arbda yuz bergan birlamchi modernizatsiya jarayonining natijasi sifatida amalga oshgan”⁴¹.

Bu sohada o‘ziga xos fikrlarni aytgan tadqiqotchilar M.Uoters va R.Robertsonlardir. M.Uoters “Globallashuv” nomli monografiyasida aytishicha, “globallashuv” tushunchasi to‘rt asrdan beri qo‘llanilayotgan “globallilik” terminidan kelib chiqadi, lekin “globallashuv” va “globalizm” tushunchalari ijtimoiy fikrga XX asrning 60-yillaridan beri kirib keldi.⁴² R.Robertsonning fikricha esa “globallashuv” tushunchasi 1980-yillarning o‘rtalaridan qo‘llanila boshlandi, “... u dunyoning qisilishi hamda dunyo ongining bir butun sifatidagi intensivatsiyasini, konkret global bog‘liqlik va XX asr global ongining butunligini ifoda eta boshladi”⁴³.

Podzigun I.M. globallashuv jarayonini ikki shaklga: tabiiy va sub’ektlarning aralashuvi hamda boshqaruvi natijasida shakllanayotgan globallashuvga ajratadi: “...birinchi, globallashuvning tabiiy shakli inson turiga xos, globallashuvning sun’iy shakli ma’lum sharoitlarda dunyoda kuchlar muvozanati buzilganda va sivilizatsiyaning yangi yo‘llari qidirila boshlanganda dolzarblik kasb etadi. Tosh asridayoq insoniyat butun planeta bo‘ylab o‘rnashibgina qolmasdan, migratsiya jarayonlari boshlandi, yangi til va etnoslar shakllandi. Bu davrda xalqlar va madaniy an’analar o‘rtasida savdo aloqalari kengaydi, ularning ichida eng yirigi Evropa, Xitoy va Hindistonni bog‘lagan Buyuk Ipak yo‘li edi. Madaniyatlar va xalqlar o‘rtasida o‘rnatilgan aloqalar an’analarining o‘zaro boyishiga olib keldi, bu narsa aloqadorlikka kirgan tilda

⁴⁰ Ата-Мирзаев О., Гентшке В., Муртазаева Р. Медуациональная толерантность в Узбекистане: история и современность. -Т.: Университет, 2004. -С.53.

⁴¹ Федотова В.Г. Россия, Запад, Восток.//Философские науки. 2002, № 1. 26 -б.

⁴² Подзигун. Глобализация и глобальные проблемы. Философско методологический анализ. Дисс. На соискание доктора филос.наук. М.,2003.-С.72. бўйича келтирилди.

⁴³ Ўша жойда. 72- б.

o‘z aksini topdi. Bu jarayonning ildizlarini yozuv, shaharlar, sivilizatsiyaning kurtaklari paydo bo‘lgan neolit davridan topish mumkin.”⁴⁴

Bu sohada bizning fikrimiz ham qayd etilgan qarashga yaqin. Insonlar o‘z hayotlarida boshqalar bilan munosabatga intilishlari tabiiy. Insoniyat tarixining barcha davrlarida ham integratsiya jarayonlari mavjud bo‘lgan. Jamiyatning taraqqiyoti bilan birga ular kengayib borgan. Globallashuvning ildizlari tarixning boshlanishi davriga borib taqaladi. Globallashuvning evolyusiyasiga tarixda yuz bergan har qanday yirik voqealar va hodisalar ta’sir ko‘rsatgan. Bunday evolyusiyaning sur’atlari asrdan-asrga o‘tgan sari tezlashib borgan. Uni bir necha bosqichlarga bo‘lish mumkin. Bizningcha bu jarayon quyidagicha tarzda namoyon bo‘ladi:

- ibtidoiy jamoa tuzumidan boshlab yirik milliy va jahon dinlarining shakllanish davrigacha;
- O‘rta asrlar va Uyg‘onish davridan YAngi davrgacha;
- Yangi davrdan boshlab XX asrgacha;
- XX asrdan boshlab hozirgi davrgacha.

Globallashuv jarayoniga ikki jihatdan nazariy va amaliy jihatlardan yondashuv uning mohiyatini to‘laroq aks ettirishga yordam beradi. Umumiy nazariy jihatdan olib qaraganda, globallashuv jamiyat ijtimoiy sohalarining integratsiyasiga asoslangan va progressiv yo‘nalgan taraqqiyotining yangi bosqichi. Lekin amaliy jihatdan olib qaraganda, globallashuv barcha davlatlar va mamlakatlarning o‘z ijtimoiy taraqqiyoti yo‘lida yangi yo‘nalishlarni, taraqqiyotning progressiv usullarini topish yo‘lidagi harakatidir. Bunday harakatlar insoniyatning yangi mohiyatga ega bo‘lgan taraqqiyot shakllarini qidirib topish yo‘lidagi tabiiy intilishini ifoda etadi.

Birinchi jihat – globallashuvning ob’ektiv va qonuniy mohiyatga ega bo‘lib, integratsiya jarayonining yangi bosqichi, aniqrog‘i, davomi sifatida namoyon bo‘layotganligini, bu jarayonning cheksizligi va davomiyligini taqozo etadi.

⁴⁴ Подзигун. Глобализация и глобальные проблемы. Философско методологический анализ. Дисс. На соискание доктора филос.наук.М.,2003.-С.72.

Ikkinchi jihati, tabiiy globallashuv bilan birga sub'ektlarning faoliyati natijasida (aniqrog'i, aralashuvi natijasida) qisman sun'iylik xususiyatiga ega bo'lib borayotgan va uning oqibatida ayrim davlatlar va millatlarning progressiv taraqqiyotiga zid kelib borayotgan globallashuvning amalga oshayotganligini ham nazarda tutadi. "Har bir ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo'lgani singari, globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. Hozirgi paytda uning g'oyat o'tkir va keng qamrovli ta'sirini deyarli barcha sohalarda ko'rish, his etish mumkin. Ayniqsa, davlatlar va xalqlar o'rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi, xorijiy investitsiyalar, kapital va tovarlar, ishchi kuchining erkin harakati uchun qulayliklar vujudga kelishi, ko'plab ya'ni ish o'rinlarining yaratilishi, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining, ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi, turli qadriyatlarning umuminsoniy negizda uyg'unlashuvi, sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi, ekologik ofatlar paytida o'zaro yordam ko'rsatish imkoniyatlarining ortishi – tabiiyki, bularning barchasiga globallashuv tufayli erishilmoqda"⁴⁵.

Globallashuv ijtimoiy hodisalarning biri sifatida yuzaga kelgan. Keyinchalik insoniyat taraqqiyoti, jamiyatda millatlararo hamda madaniyatlararo iqtisodiy – ijtimoiy va siyosiy – madaniy munosabatlarning kengayishi va rivojlanishi natijasida insoniyat tarixining ajralmas, muhim ob'ektiv va qonuniy jarayonlaridan biriga aylangan. Aytish kerakki, ushbu jarayonning ifodalanishi jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida turlicha bo'lib, u o'zida ma'lum tarixiy davr bosqichining mohiyati, xususiyati va tendensiyalarini ifoda etadi.

Globallashuv jarayoniga qo'shilgan davlat yoki millat qanchalik taraqqiy etib borgan sari u shunchalik millatlararo va davlatlararo munosabatlarga, demokratik o'zgarishlarga kirib boradi va taraqqiyotining sur'atlari yanada tezlashadi. Va aksincha, jamiyat qanchalik demokratik yo'ldan taraqqiy etib borgan sari, u shunchalik globallashuv jarayoniga ham chuqurroq kirib boradi, bu jarayon doirasidagi ijtimoiy munosabatlarga o'zining ixtiyoridan qat'iy nazar qo'shilib

⁴⁵ Каримов И.Юксак маънавият – енгилмас куч.-Т.: Маънавият, 2008. 112-б.

boradi. Millatlar yoki davlatlar izolyasiyada (ajralgan holda, yakka) yashay olmaganliklari sababli doim boshqalar bilan o‘zaro munosabatlarga intiladilar. Hech qaysi millat yoki davlat alohida va o‘z qobig‘iga o‘ralgan holda taraqqiy etmaydi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, ijtimoiy taraqqiyotning o‘zi ob‘ektiv tarzda globallashuv jarayonining yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.

Har qanday o‘zaro munosabatda tomonlarning ikkisi ham bir-birining ta’siri natijasida o‘zgarib borishi dialektik rivojlanishning sharti. Bu nuqtai nazardan globallashuv jarayonining o‘zi ham ta’sir etibgina qolmaydi. U mamlakatlar va millatlar ijtimoiy hayotini o‘zgartirib borishi bilan birga o‘zi ham jarayon sifatida o‘zgarib boradi.

Globalashuvning tarqalishi yoki kengayib borishi barcha ijtimoiy makonlarda bir xil emas. Bunga sabab globallashuvga nisbatan mamlakatlarning munosabati turlicha ekanligida. Ayrim mamlakatlar tolerantligi, ochiqligi sababli globallashuvga ham ochiq munosabatda bo‘lgani holda, ayrim yopiq jamiyatlar unga qo‘shilishni istamaydilar. Yana boshqalari bu jarayonga nisbatan neytral yo‘lni tanlagan bo‘lsalar, ba’zilar turli yo‘llar bilan unga qarshi chiqishga intiladilar.

Bu jarayonning zamondagi chegaralari va amalga oshish sur‘atlari ham barcha mamlakatlar va millatlar uchun bir xil emas. U ayrim mamlakatlar hayotida tezroq, ayrimlarida esa sekinroq kechishi mumkin. Masalan G‘arb mamlakatlarining o‘zida bu jarayon tezroq borsa, an’anaviy SHarq mamlakatlarida uning sur‘atlari nisbatan sekinroqdir. Bu jarayonning ziddiyatli tomonlari ham barcha davrlarda bir xilda namoyon bo‘lmagan

Sivilizatsiyaning sharqiy-an’anaviy turlariga kelsak, ularning ayrimlari (hind-buddaviylari) tashqi ta’sirlarga nisbatan neytral, boshqalari (konfutsiylik) ochiqroq bo‘lib, ular o‘z-o‘zini takomillashtirishga moyilroq, uchinchilari (musulmonlik) tashqi transformatsiyalarga kamroq ochiqdir, lekin ularning hammasi ham yuqori darajada tolerantligi bilan farq qiladi”⁴⁶.

⁴⁶ Зелепухина И.В. Национальное в контексте глобализации. Дисс. на соискание канд. ф.н. Черкасск, 2005. С.31-32.

Globalashuv jarayonining mohiyati uning qay darajada taraqqiyotga xizmat qilishi, ya'ni uning progressivligi bilan belgilanadi. Globalashuvning bunday xususiyati uning quyidagi jihatlari orqali namoyon bo'ladi:

- gumanistik yo'nalganlik darajasi;
- jamiyat va shaxsning madaniy va ma'naviy takomillashuviga ta'siri;
- milliy madaniy va ma'naviy qadriyatlar tizimiga ta'siri;
- u olib kelayotgan modernizatsiyaning mohiyati;
- madaniy plyuralizmga asoslanganlik darajasi.

YUqoridagi jihatlarni umumlashtirgan holda globalashuvning mohiyatini uning qay darajada millatlar va mamlakatlarni qamrab olganligi va ularning manfaatlari, ehtiyojlari demak, taraqqiyotiga xizmat qilayotganligi bilan bog'lash mumkin. Bundan tashqari globalashuvning natijalaridan barcha mamlakatlar va millatlar ham bir xilda va teng foydalana olish imkoniyatiga egami, ular bu sohada teng huquqlimi, madaniy plyuralizm dialogiga amal qilinmoqdam? Ana shu savollarga ijobiy javob bera olgan globalashuv progressiv mohiyatga ega, deb ayta olamiz. Aksincha, dunyo hamjamiyatining o'zaro munosabatlarida gegemonlikka intilayotgan ayrim mamlakatlar va ular sub'ektlarining maqsad va manfaatlariga xizmat qiluvchi va nisbatan kichikroq mamlakatlar, millatlar, iqtisodiy jihatdan kuchli bo'lmagan davlatlarning teng huquqliligini inkor etuvchi hamda milliy qadriyatlar va milliylikka xavf soluvchi globalashuvning mohiyati gumanistik va progressiv emas. "Medalning ikki tomoni bo'lganidek, globalashuvning ham ikki-ijobiy va salbiy jihatlari yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Agar uning salbiy tomonini olib, sotsiomadaniy, siyosiy va ma'naviy-psixologik makonlardagi faoliyatini kuzatadigan bo'lsak, voqealarning borishi iqtisod sohasidan farqli o'laroq, bir necha barobar murakkab ekanligini tan olishimizga to'g'ri keladi"⁴⁷.

⁴⁷ Пахрутдинов Ш.И., Жўраев Т.А. ва бошқалар. "Миллий манфаатлар ва бошқарув масъулияти. Огоҳлик ва хушёрлик тамойиллари (Таҷрибавий қўлланма)" Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат ва жамият қурилиши академияси, Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2008. 181 - б.

Demak, ijtimoiy taraqqiyotning o'zi, ijtimoiy borliqdagi o'zaro aloqadorlik globallashtirish jarayonini ob'ektiv tarzda yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. SHu bilan birga bu jarayonni amalga oshirish borasida sub'ektlarning faoliyati ham kengayib boradi, hamda globalizm kelib chiqadi. CHunki har qanday hodisa amaliyotda yuz beradi, u amaliyotga aylanishi uchun esa sub'ektning ongli faoliyati zarur.

Ko'rinib turibdiki, globallashtirishni to'xtatib qolish yoki unga qarshi kurashish to'g'risidagi turli xil nazariyalar va nazariy yondashuvlar mutlaqo asossiz. Bu erda bizningcha, o'z manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda globallashtirish jarayonining ayrim salbiy oqibatlari va milliy maqsadlarimizga to'g'ri kelmaydigan jihatlaridan himoyalash, milliy taraqqiyotga zid keluvchi tomonlariga qarshi kurashish to'g'risida gapirish mumkin xolos. Bundan tashqari globallashtirishning salbiy oqibatlarini ma'lum usullar (bu usullarni mahalliy ijtimoiy va tarixiy shart – sharoitlardan kelib chiqqan holda, har bir millat va davlatning o'zi tanlab olishi lozim) orqali cheklashlar, zarur bo'lganda ulardan himoyalashning yo'llari, globallashtirish ijobiy jihatlaridan, ya'ni jamiyatlar va millatlar uchun olib kelishi mumkin bo'lgan yutuqlaridan o'z manfaatlari, ehtiyojlari va maqsadlarini hisobga olgan holda foydalanish haqida baxs yuritishgina mumkin.

Tarixiy jarayon davomida mamlakatlar va millatlararo integratsiya natijasida kelib chiqqan bunday ob'ektiv va qonuniy hodisa sub'ektning istak va irodasiga bog'liq bo'lmagan holda davom etar ekan, demak, ushbu jarayonga tortilgan har qanday jamiyat, jumladan O'zbekiston ham unga nisbatan o'z munosabatini aniqlab olishi zarur.

Fikrimizcha, bu yo'lda tarixiy milliy an'analarga o'ta yopishib olish ham, globallashtirish natijasida kirib kelayotgan zamonaviy madaniyatni to'la qabul qilish ham to'g'ri bo'lmaydi. CHunki birinchi holatda millat uchun o'z qobig'iga o'ralib qolgan holda jahonning ilg'or zamonaviy madaniyati va qadriyatlaridan, demakki, demokratik taraqqiyotdan orqada qolish xavfi tug'ilsa, ikkinchi holatda esa, milliy an'anaviy qadriyatlar, ya'ni milliy mohiyat va milliy mavqe xavf ostida qoladi. CHunki millatning mavjudligi va mavqeini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri bu uning madaniyati va qadriyatlaridir. Ularning tarixi qanchalik uzoq bo'lsa,

millatning ham tarixi shunchalik uzoq va kelajagi esa davomiy bo‘ladi Demak, globallashuvdan chetda qolib ketib ham bo‘lmaydi va shu bilan birga uni to‘la qabul ham qilib bo‘lmaydi.

YUqoridagilarni hisobga olgan holda, nazariyotchilarimiz ushbu sohada tinmay izlanishlari, ya’ni globallashuvning sur’atlari, tendensiyalari, dinamikasi, natijalari va oqibatlarini ilgaridan o‘rganib o‘zining ilmiy farazlari va takliflarini berishlari kerak. Tinmay milliy ma’naviy qadriyatlarimizni hozirgi zamon nuqtai nazaridan qayta o‘rganish va baholash, globallashuv natijalarini qabul qilish, uning salbiy tomonlaridan himoyalanih usullarini izlab topish va manfaatlariimzga va maqsadlarimizga zid bo‘lgan jihatlariga qarshi kurash yo‘llarini aniqlash lozim. Bunday vazifani to‘g‘ri anglab etish va uni amalga oshirishning iloji boricha jamiyat uchun “zararsiz” va “og‘riqsiz” yo‘llarini aniqlab olish barcha davlatlar va millatlar qatori O‘zbekiston uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Demak, hozirda har bir millat va mamlakat oldida globallashuv jarayoniga o‘z munosabatini belgilab olishdek muhim vazifa turibdi. CHunki millatning unga munosabatida uning globallashuv jarayonining faol ishtirokchisi, kuzatuvchisi bo‘lishi yoki aksincha, bu jarayonning oqibatlari ta’sirida uning passiv ergashuvchisi, ya’ni salbiy ma’nodagi ob’ektiga aylanib qolishi mumkinligi ifoda etadi.

YUqoridagi jihatlarni umumlashtirgan holda globallashuvning mohiyatini uning qay darajada millatlar va mamlakatlarni qamrab olganligi va ularning manfaatlari, ehtiyojlari demak, taraqqiyotiga xizmat qilayotganligi bilan bog‘lash mumkin. Bundan tashqari globallashuvning natijalaridan barcha mamlakatlar va millatlar ham bir xilda va teng foydalana oladimi, ular bu sohada teng huquqlimi, madaniy plyuralizm dialogiga amal qilinmoqdami? Ana shu savollarga ijobiy javob bera olgan globallashuvning shakli progressiv mohiyatga ega, deb ayta olamiz. Aksincha, dunyo hamjamiyatining o‘zaro munosabatlarida gegemonlikka intilayotgan ayrim mamlakatlar va ular sub’ektlarining maqsad va manfaatlari xizmat qiluvchi va nisbatan kichikroq mamlakatlar, millatlar, iqtisodiy jihatdan kuchli bo‘lmagan davlatlarning teng

huquqliligini inkor etuvchi hamda milliy qadriyatlar va milliylikka xavf soluvchi globallashuvning mohiyati gumanistik va progressiv emas.

Globalashuv modernizatsiya va integratsiyani birlashtirgan holda uzoq davom etadigan jarayon. SHu bilan birga u madaniyat va axborotning kirib kelishi natijasida milliy madaniyatning o'zgarishi bilan birga uning taraqqiy etish va yangiliklarga moslasha olish imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Bu nuqtai nazardan ayrim EI, YUNESKO, BMT, XVF kabi xalqaro tashkilotlarni misol keltirib, ularni globallashuvni amalga oshiruvchilar sifatida talqin etuvchi ayrim tadqiqotchilarning fikriga qo'shilgan holda aytmoqchimizki, bunday xalqaro tashkilotlar ko'plab iqtisodiy va siyosiy muammolarni hal etish uchun millatlarni emas, davlatlarni birlashishga chaqiradi. Bunday birgalikda olib boriladigan faoliyat davomida o'z manfaatlarini himoya etish esa ko'p jihatdan davlat boshida turgan siyosiy kuchlarga, globallashuvning sub'ektlariga bog'liq.

Ko'rinib turibdiki, globallashuvni to'xtatib qolish yoki unga qarshi kurash to'g'risidagi turli xil nazariyalar va nazariy yondashuvlar mutlaqo asossiz. Bu erda bizningcha, globallashuv jarayonining ayrim salbiy oqibatlari va millatlarning manfaatlariga to'g'ri kelmaydigan jihatlariga qarshi kurash to'g'risida gapirish mumkin xolos. Bundan tashqari globallashuvning oqibatlarini ma'lum usullar (bu usullarni mahalliy ijtimoiy va tarixiy shart – sharoitlardan kelib chiqqan holda har bir millat va davlatning o'zi tanlab olishi lozim) orqali cheklashlar, zarur bo'lganda ulardan himoyalaniishning yo'llari, globallashuv ijobiy jihatlaridan, ya'ni jamiyatlar va millatlar taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ijobiy tomonlaridan o'z manfaatlari va maqsadlarini hisobga olgan holda foydalanish haqida baxs yuritish mumkin.

Globalashuv va global muammolar doirasida globallilik va milliylik dialektikasi, o'zaro bog'liqligi va munosabati alohida tahlilni talab etuvchi masala hisoblanadi. Milliylik millat yashashi va rivojlanishining asosiy sharti hisoblanadi. Milliylik globallashuv tizimida turli - tumanlikdan tuzilgan bir xillikning asosiy elementi bo'lib, bir xillikning (ya'ni shakllanib kelayotgan globallilikning)

mavjudligi, mohiyati va dinamikasiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Bu nuqtai nazardan turli-tumanlik yoki har xillik bir xillik orqali yashaydi. Bir xillikning mavjud bo‘lishi yoki bo‘lmasligini ya‘ni “taqdirini” unga mohiyatan qarama-qarshi bo‘lgan har xillik hal etadi.

Falsafiy nuqtai nazardan globallilikning mezonlari masalasi muhimdir. Bu masala qanday muammolarni global muammolar qatoriga qo‘shish kerak va ushbu globallilikning namoyon bo‘lishi shakllari qanday? degan savolga javob berish masalasidir. Tadqiqotchilar unga turlicha javoblar bermoqdalar. Bir qator millatlar va xalqlar, davlatlar va mintaqalarning taqdiriga aloqador va ularning hayotiga ta‘sir ko‘rsatuvchi muammolar global muammolardir. Bu muammolarning hal etilishi insoniyat ijtimoiy hayoti muhim sohalarining taraqqiyotiga ijobiy ta‘sir etuvchi omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Demak, globallilikning mezonlari uning qay darajada katta hududga tarqalganligi, davlatlar va millatlar ijtimoiy hayotini qamrab olinishi makoniy chegaralari va ularni ushbu jarayonga qanday tortilayotganligi bilan belgilanadi. Bundan tashqari global muammo davlatlarning kelajagiga qanday ta‘sir etayotganligi kabi masalalarga bog‘liq. Masalan, yaqinda AQSH da 2008 yilning oktyabrda boshlangan iqtisodiy tanazzul dunyoning deyarli barcha mamlakatlari iqtisodiy hayotiga ta‘sir qilib, ularni turli yo‘llar bilan himoyalash choralarini ko‘rishga majbur qilmoqda va ularga katta moddiy zararlar etkazmoqda. AQSH iqtisodiy taraqqiyot sur‘atlari bo‘yicha etakchi bo‘lishi bilan birga u tashqi qarzlarni bo‘yicha ham etakchidir. Uning tashqi qarzi hozirda 90 trillion dollarni tashkil etadi. Bu vaziyat AQSH ning Iroq va Afg‘onistonda olib borgan harbiy kompaniyasi oqibatida yanada chigallashdi. AQSH hukumati iqtisodiy – moliyaviy ahvolini yaxshilash maqsadida davlat obligatsiyalarini chiqardilar va ularni dunyoning AQSH iqtisodi bilan integratsiyalashgan o‘nlab rivojlangan davlatlari sotib oldilar. Jumladan, YAponiya 573, Xitoy 585 milliard dollarlik obligatsiyaga ega bo‘ldilar. Ammo, Amerikaning eng yirik banklari ham o‘z qarzlarni to‘lay olmagan holda o‘zlarini bankrot, deb e‘lon qildilar. Bu sohada AQSH bilan bog‘liq bo‘lgan YAponiya va Xitoy kabi mamlakatlar bu davlatda

boshlangan iqtisodiy tanazzul oqibatlarini kuchli sezmoqdalar. O‘zbekistonga kelsak, davlatimiz bilan AQSH o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar unchalik keng emas, shu sababli ham O‘zbekistonda ushbu tanazzulning oqibatlari sezilarli rol o‘ynamasa kerak.

Bunday tanazzul natijasida butun dunyoda ishsizlik, savdo va narx-navo bilan bog‘liq muammolar yuzaga keldiki, ularning ta‘sirini Er yuzining deyarli barcha aholisi o‘z hayotida sezmoqda. Boshqacha qilib aytganda, taraqqiyotning ma‘lum bosqichlarida insoniyatning kelajagi, taqdiri yuqorida global muammolarning hal etilishiga bog‘liq bo‘lib qolishi, ularni o‘z vaqtida hal etilmasligi esa ta‘sir doirasi dunyo darajasida bo‘lishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. SHuni ham ta‘kidlab o‘tish zarurki, ba‘zan ayrim hodisalarning global xarakteri ushbu hodisa yuz berganidan ma‘lum vaqt o‘tganidan keyin ham yuzaga chiqishi mumkin. Bu narsa ayniqsa, madaniyat, ta‘lim sohasidagi jaraenlarda bilinadi.

2.2. Globallashuv jarayonida O‘zbekiston

O‘zbekiston o‘zining ulkan tarixiy taraqqiyoti va o‘ziga xos rivojlanish xususiyatiga ega bo‘lgan mamlakatdir. U jahon sivilizatsiyasiga buyuk hissa qo‘shgan, jahon tarixida chuqur iz qoldirgan dalat hisoblanadi. Ana shularni nazarda tutib, I.A. Karimov yozadi : «Markaziy Osiyo tarixida siyosiy aql - idrok bilan ma‘naviy jasoratni, diniy dunyoqarash bilan qomusiy bilimdonlikni o‘zida mujassam etgan buyuk arboblar ko‘p bo‘lgan.

Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Xoja Bahovuddin Naqshbandiy, Xoja Ahmad YAssaviy, Al Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa ko‘plab buyuk ajdodlarimiz milliy madaniyatimizni rivojlantirishga ulkan hissa qo‘shdilar, xalqimizning milliy iftihori bo‘lib qoldilar. Ularning nomlari jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo‘shgan buyuk hissalar hozirgi kunda butun dunyoga ma‘lum⁴⁸.

⁴⁸ И.Каримов. «Ўзбекистон XXI аср бўсағасида... - Т.1997.144-бет

O‘zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari ichida iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy jihatidan ilg‘or mamlakat hisoblanadi.

SHuningdek, u o‘z taraqqiyoti istiqbollari, imkoniyatlari jihatidan qulay geografik - strategik mavqega egadir. O‘zbekiston mintaqada har tomonlama qulay imkoniyatiga ega bo‘lgan istiqbolli mamlakatdir.

G‘I. Karimov ta’kidlaganidek: «O‘zbekiston mintaqaviy mezonlarga ko‘ra yuksak darajadagi urbanizatsiya va sanoatlashuvni, shuningdek, ilmiy-texnik kadrlar bilan ta’minlanganlikni turmush tartibiga va u SHarq bilan G‘arb muloqatida vositachi ko‘plab sivilizatsiyalar ma’naviy aloqasining ramzi ham bo‘lishi mumkin»⁴⁹.

O‘zbekiston hozirgi davrda jahon sivilizatsiyasi sari rivojlanib bormoqda. Bu rivojlanishda o‘ziga xos va o‘ziga mos an’analar, betakror noyob xususiyatlarini saqlanib qolmoqda.

Ma’lumki, eng yirik sivilizatsiyalar SHarq va G‘arb sivilizatsiyalari hisoblanadi. Bu sivilizatsiyalar o‘rtasida umumiylik va o‘ziga xoslik mavjud. Qator adabiyotlarda O‘zbekiston jamiyati qaysi sivilizatsiya asosida taraqqiy etadidegan masala qo‘yilyapti.

Agar O‘zbekiston G‘arb sivilizatsiyasi asosida rivojlansa, u holda G‘arb taraqqiyotiga xos barcha iqtisodiy, shuningdek, hayotda mavjud bo‘lgan ziddiyatlarni ham o‘ziga singdiradi va qabul etadi.

O‘zbekiston SHarq sivilizatsiyasi asosida taraqqiy etsa, u holda SHarqqa xos bo‘lgan ijtimoiy xususiyatlarni, davlatning jamiyat barcha jabhalariga rahbarlarigining ustunvorligini, an’ana, rasm-rusm, vaqtni o‘zida mujamssamlashtirishi kerak. Bu esa rivojlanish jarayonini cho‘zib yuboradi, u yoki bu davlatlarning rivojlanishi namunasini nusxa sifatida tanlashni qiyinlashtiradi.

O‘zbekistonning tarixiy qismati SHarq tarixining bir qismi ekanligi bilan chambarchas bog‘liqdir. SHuningdek, jahon tarixi, insoniyat tarixi yaxlit, bir butun, umumiy birlikdan tashkil topgan, o‘zaro aloqada, o‘zaro bog‘liqdir. O‘zbekiston o‘z taraqqiyot yo‘lini belgilashda quyidagi tamoyillarga asoslanishi zarur:

⁴⁹ Ўша жойда.

1. tarixiy o‘tish davri muammolarini dalillar asosida aniq idrok etish, uning mohiyatini seza bilish:
2. milliy an‘ana, milliy o‘ziga xoslikni saqlab qolish va takomillashtirish asosida rivojlanish konsepsiyasini yaratish va unga qat’iy amal qilish:
3. jamiyatning barcha jabhalarida: iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma’naviy jihatlarni sivilizatsiyali yo‘nalishga o‘tkazish muammolarini hil etish:
4. xalqlar, davlatlar, millatlar rivojlanishidagi o‘zaro o‘xshashliklar, tafovutlar va ayrim xususiyatlarni qunt bilan o‘rganish, ulardan foydalanish, moslashtirish va boshqalar:
5. shuningdek, jamiyat rivojlanishining eng muhim omillari sifatida geografik muhit va ummuman «tabiiy» faktorlar rolini aniqlash:

Davlatning hududiy joylanishi, daryolar, tog‘, cho‘l regionlarning joylanishishi, ularning xo‘jalik tarmoqlari, er usti, tabiiy boyliklar, iqlim, inson salohiyati va boshqalarning o‘rni va rolini aniqlash va boshqarish.

O‘zbekistonning sivilizatsiyali rivojlanishi jahon hamjamiyati bilan bevosita bog‘likdir, ammo bu jarayonda u o‘zligi va noyobligini saqlab qolishi kerak.

Insoniyat hozirgi jahon hamjamiyatining ochiqdan-ochiq ko‘rinib turgan xilma-xilligi va ko‘pqirraligini. uning barcha sub’ektlari o‘rtasidagi turli teng huquqlikni ham butun jahon sivilizatsiyasi muvaffaqiyatli rivojlanishini tabiiy va zaruriy shart sifatida eggirof etishni talab qiladi⁵⁰

G‘arb sivilizatsiyasi hozirgi davda rivojlanishning eng yuqori bosqichiga etdi. U jahondagi mavjud sivilizatsiyalar yutuklarini o‘ziga singdirdi, mazmunan boyidi. Lekin G‘arb sivilizatsiyasi o‘z mohiyati, xususiyatlari bilan boshqa sivilizatsiyalardan, xususan, islom, konfutsizm, yapon, hind, buddizm va provoslav madaniyatidan farq qiladi. Bu sivilizatsiyalardan G‘arb idealiga xos bo‘lgan individualizm, liberalizm, konstitutsializm, inson huquqi, erkinlik, tenglik, qonun ustuvorligi, demokratiya, erkin bozor, cherkovning davlatdan ajratilishi singari tamoiyillar rivojlanmagan.

⁵⁰ И.Каримов. «Ўзбекистон XXI аср бўсағасида...Т.1997. –Б. 51-52.

Demokratik boshqarish usullari G'arbda shakllandi va rivojlandi. G'arbdan boshqa ayrim mamlakatlarda vujudga kelgan ijtimoiy, demokratik o'zgarishlar G'arbning tazyiqi, zo'rlashi asosida ro'y berdi. Ular bevosita xalqning o'zidan, shu mamlakat sivilizatsiyasidan o'sib chiqmagan, balki tashkaridan kiritilgan edi.

Sivilizatsiya - rivojlanishning muayyan bir bosqichidagi biron-bir xalq va mamlakatning ijtimoiy- iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayotidagi sifatiy o'ziga xosligidir. Ayrim tadqiqotchilar sivilizatsiya asosini madaniyat, xalq, xudud bilan bog'lasalar, boshqalari dinni asos qilib oladilar.

Markaziy Osiyoning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy- ma'rifiy va sivilizatsiyali taraqqiyotida do'nyoviy ilmlar bilan bir qatorda turli diniy ta'limotlar ham o'ziga xos o'rin tutgan. «Ko'hna tariximizning qaysi davrini eslamaylik, - deb yozadi I. A. Karimov,- din har doim odamlarning o'z-o'zini idora etishga, yaxshi xislatlarni ko'paytirib, yomonlaridan halos bo'lishga chorlagan. Har bir alohida insonga, oila, jamoa, mintaqa, bir so'z bilan aytganda, umumxalqqa rahnamo bo'lgan. Uni og'ir sinovlarga bardosh berishga, yorug' kunlarga intilib yashashga da'vat etgan, bunday da'vat o'z navbatida odamlarga kuch-quvvat bag'ishlagan; irodasini mustahkamlagan, bir-biriga mehr- oqibatni oshirgan».

Har bir xalq o'z milliy psixologiyasi, madaniyati va intellektual salohiyatiga mos ravishda o'z milliy davlatchiligini yaratadi. Siyosiy va huquqiy madaniyat sivilizatsiyaning muhim elementi hisoblanadi. Milliy davlatchilik asoslarini yaratmay turib, sivilizatsiya yaratib bo'lmaydi.

SHarq sivilizatsiyasiga xos bo'lgan quyidagi muhim xususiyatlarni ko'rsatish mumkin :

- 1) SHarqdagi barcha dunyoviy, diniy va falsafiy ta'limotlar tabiatga ehtiyotkorik bilan munosabatda bo'lishni, sabr- toqatlilikni targ'ib etgan ;
- 2) odamlar orasida bag'rikenglik, birdamlik, hamjihatlik ruhi kuchli bo'lgan;
- 3) milliy qadriyat va an'analar e'zozlangan;
- 4) avlod-ajdodlarga, kattalar, ota-onaga hurmat bilan qarashga alohida e'tibor berilgan.

O'zbekiston SHarq sivilizatsiyasi bag'rida rivojlandi. Uning sivilizatsiyasiga xos belgilar: kambag'al va ojizlarga g'amxo'rlik, o'zaro yordam, tabiatga oqilona munosabat, mehnatsevarlik, sabr-toqatlilik, vatanparvarlik, kattalarga hurmat kabilardir.

O'zbekiston jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga ilm- fan, axloq, din, san'at, madaniyat sohasidagi ulkan yutuqlari bilan munosib hissa qo'shdi.

Milliy mustaqillik yillarida o'ziga xos taraqqiyot yo'lidan borayotgan O'zbekiston o'z milliy qadriyatlari, ma'naviy merosi va boy madaniyatiga tayanib, G'arb va SHarqning umumbashariy qadriyatlari va tajribalarini ijodiy o'zlashtirib, jahon sivilizatsiyasi yo'lidan bormoqda.

Hozirgi zamon sivilizatsiyasi o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Eng muhimi, jahon sivilizatsiyasini saqlab qolish va uni yanada rivojlantirishdir. Jahon sivilizatsiyasini tanazzulga olib keladigan qator tahdidlarni bartaraf etish, insonni oliy qadriyat sifatida e'zozlash, tabiatni avaylab-asrash, ekologik xavfsizlikni ta'minlash, ommaviy qirg'in qurollarini yo'q qilish, davlatlar, xalqlar o'rtasidagi nizolarni siyosiy yo'l bilan muzokaralar orqali hal etish, turli jinoiy uyushmalarga barham berish, xalqaro terrorizm va giyoxvandlikka, turli yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish, kishilarda yangicha dunyoqarash va siyosiy tafakkurni shakllantirish hozirgi zamon sivilizatsiyasining muhim muammolaridir.

Bunday muammolarni oqilona hal etish uchun turli mamlakat, mintaqa xalqlari o'rtasida umumiy hamjihatlik va hamkorlikka bo'lgan intilish tobora ortib bormoqda.

Turli falsafiy sistemalarda dunyoning ijtimoiy- madaniy taraqqiyoti mezoni turlicha talqin etib kelindi. Xususan, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi, texnik va texnologik yutuqlar, tabiiy geografik omilga ijtimoiy-madaniy rivojlanish mezoni sifatida qarab kelindi. Hozirgi paytda qator falsafiy adabiyotlarda shaxs ma'naviyati va uning erkinlik darajasi ijtimoiy-madaniy taraqqiyot mezoni sifatida ko'rsatilyapti.

Milliy mustaqillik yillarida madaniyatimizning bundan keyingi rivojlanish istiqbollari uchun puxta zamin yaratildi. Bu, avvalo, boy madaniy merosimizni har

tomonlama chuqur o'rganish imkoniyatlarining yaratilganligida, kadrlar tayyorlash milliy dasturining ishlab chiqilganligi va sobitqadamlik bilan amalga oshirilayotganida, milliy madaniyatlarning ravnaq topishi va bir-birini boyitishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratilishidir.

Jahon madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan ulug' ajdodlarimiz merosini keng targ'ib etishda mamlakatimiz ilm-fan va texnika salohiyatini rivojlantirishga alohida e'tibor berilayotganligida, yurtimiz obodonchiligi yo'lida katta tadbirlarning amalga oshirilayotganligida namoyon bo'lyapti.

Madaniyat va sivilizatsiyaning asosiy tamoyillari, qonuniyat va xususiyatlarini bilish - ma'naviy kamolot manbaidir.

Madaniyat va sivilizatsiyaning o'zaro bog'liqligi va o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan chuqur idrok etish barkamol inson shaxsini shakllantirishda muhim ahamiyatga egadir. YOsh avlodni yuksak madaniyatli va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat va sadoqat ruhida tarbiyalash milliy taraqqiyotning muhim talabi, ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh vazifasidir.

Taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida yuksak madaniyatli insonni tarbiyalash, qonunchilikka amal qiladigan, fuqarolik burchini ado etadigan, fuqarolik jamiyati talablariga rioya qiladigan, har qanday kelishmovchilik va ixtiloflarni oqilona hal qila oladigan, jahon standartlari talablariga javob beradigan sivilizatsiyali barkamol shaxsni shakllantirish vazifasi turibdi.

SHunday qilib, madaniyat va sivilizatsiya bir-birini taqozo etadigan hodisalardir. Milliy mustaqillik yillarida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sohada erishilgan yutuqlar mamlakatimizning sivilizatsiyali taraqqiyoti uchun puxta zamin yaratadi.

O'zbekiston sivilizatsiyasi va madaniyati ancha boy va uzoq rivojlanish tarixiga egadir. U islom dini, madaniyati orqali SHarq mamlakatlari uchun xos bo'lgan umumiy madaniyat manbaalari bilan uyg'unlashadi. Bu esa o'zbek sivilizatsiyasining sharqona asosini belgiladi. Ammo o'zbek sivilizatsiyasi o'ziga xos xususiyatlarining betakrorligi, noyobligi va milliyligini saqlab qoldi. O'zbek

sivilizatsiyasi qator xususiyatlari bilan Markaziy Osiyo davlatlari va xalqlari bilan yaqindan hamkorlik qilish, yaxlit sivilizatsiyani yaratish imkoniyatini kuchaytirmoqda.

Hozirgi davrda O‘zbekiston sivilizatsiyasining yo‘nalishi hamkorlik va birlikni mustahkamlashga, ayniqsa, Markaziy Osiyo mamlakatlarida madaniyat, din va urf-odatlarni hisobga olib integratsiyalashuv jarayonini amalga oshirish, mintaqada sivilizatsiyalararo ziddiyatlar keskinlashuvining oldini olishga, madaniyat va qadriyatlarni o‘rganish, avaylab-asrash, davrga moslashtirishga, mavjud sivilizatsiyalar o‘rtasidagi umumiy tomonlarni topish, sivilizatsiyalarni sintezlashtirishga qaratilgandir.

Xulosa

“Sivilizatsiya” tushunchasining mohiyati hozirgi kunda uning dastlab qo‘llanilgan davrlardagi mohiyatidan ancha farq qiladi. “Sivilizatsiya” o‘ta keng tushuncha, bunday sifatda u turli-tuman madaniyatlarni o‘z ichiga olishi va uning chegaralari ulkan hududlarni, aholini birlashtirishi mumkin. YAkka holda olingan madaniyatga nisbatan sivilizatsiya tushunchasini qo‘llash noto‘g‘ri

Millatlar va davlatlararo munosabatlarda davr ehtiyojlaridan va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ba‘zan iqtisodiy, ba‘zan siyosiy va ba‘zan madaniy jihatlar asosiy o‘ringa chiqadi hamda globallashuv jarayonining ham mohiyatiga ta‘sir ko‘rsatadi. Ushbu jihatlardan qaysi biri oldinga yoki bosh o‘ringa chiqishi bu munosabatlarda etakchilik qilayotgan davlatning va millatning maqsadlari, xususiyatlari va imkoniyatlari bilan bog‘liq. Masalan, bugungi globallashuvning mohiyatini ko‘proq iqtisodiy va bu soha bilan bog‘liq tarzda siyosiy xususiyatlar belgilab bermoqda. CHunki unda etakchilik qilayotgan G‘arb davlatlari, asosan AQSH o‘z maqsadlaridan kelib chiqqan holda bu jarayonga ana shunday mazmun bermoqdalar.

Tarixiy jarayon doim ham sivilizatsiyalarning taraqqiyoti bilan birgalikda borgan. Aniqrog‘i, tarix sivilizatsiyaning natijasi, deb aytish mumkin, va aksincha sivilizatsiya ham tarixiy taraqqiyotning natijasi. Bu ikki ob‘ektiv jarayon bir-biridan ajralmagan holda yonma-yon boradi. Sivilizatsiya madaniyatga asoslanadi. Madaniyatlar va sivilizatsiyalarning o‘zaro munosabati tarixiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida paydo bo‘lgan yangi hodisa emas. Insoniyat shakllanishi jarayoni tarixining o‘zi ham ma‘lum bir sivilizatsiyalar munosabatlarining va yangi sivilizatsiyalar paydo bo‘lishining natijasi sifatida qaralishi mumkin.

YUqorida qayd etilgan holatlarda ijtimoiy tizimning mustahkamlik darajasi katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Demak, globallashuv jarayonining tendensiyalari mamlakatda qayta qurishlar va ijtimoiy ongda o‘zgarishlar borayotgan paytda ko‘proq ijobiy xarakterga ega bo‘ladi. Ba‘zan jamiyatning ijtimoiy ongida shunday hodisalar

yuz beradiki, uning aynan shu davrdagi mentaliteti, psixologik holati, ijtimoiy ko'tarinkiligi, tashqi ta'sirga moyil bo'lishi mumkin. Buning ustiga millatning psixologiyasida tolerantlik, ko'ngli ochiqlik xususiyati kuchli bo'lsa modernizatsiya jarayoni globallashuv sub'ektlari uchun muvaffaqiyatli kechadi. Bunday sharoitda yangi g'oyalarning kirib kelishi va tarqalishi, kichik bir ijtimoiy siyosiy guruhning harakatlari ham jamiyatdagi ijtimoiy – siyosiy va ma'naviy vaziyatni o'zgartirib yuborishi mumkin. SHunday hollarda ob'ektiv va sub'ektiv omillarning bir – biriga mos tushishi ham globallashuv uchun ijobiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Demak, globallashuv sharoitida yuz berayotgan modernizatsiya jarayonining oqibatlari turlicha bo'lishi mumkinligini hisobga olish zarur.

Ilm-fan va texnologiyaning o'sishi natijasida kirib kelayotgan va ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir qiluvchi yangiliklardan foydalanish va uni ijtimoiy hayotga tadbiq etish bugungi kunning talabidir. SHundan kelib chiqqan holda bunday yangiliklarning jamiyat a'zolari tomonidan o'zlashtirilishi uchun shart – sharoit yaratish muhim xisoblanadi. SHu bilan bir qatorda, milliy qadriyatlarimizga zid keluvchi va progressiv traditsiyalarimiz tizimini izdan chiqaruvchi yangiliklarga qarshi alternativ taklif va loyihalarni o'rta tashlash talab etiladi.

Globallashuv sharoitida turli tarixiy sivilizatsiyalarning o'zaro munosabatlari doirasida uning iqtisodiy va siyosiy jihatlari alohida o'rin tutadi. Lekin shuni ta'kidlash joizki, kirib kelayotgan yangiliklar tizimida progressiv va regressiv, pozitiv va negativ potensialga ega bo'lgan, ba'zi hollarda esa mahalliy tizimning manfaatlariga aynan mos kelishi mumkin bo'lgan g'oyalar ham bo'lishi mumkin. Bunday g'oyalarning kirib kelishi ta'sir etayotgan va modernizatsiyani amalga oshirayotgan sub'ektlarning manfaatlariga mos kelmasligi ham mumkin. Lekin shunga qaramasdan bunday elementlarni yangiliklar tizimidan ajratib olib bo'lmaydi.

XX asrning oxiri va XXI asrning boshlaridagi ijtimoiy - tarixiy o'zgarishlarning barchasi iqtisodiy, siyosiy va madaniy globallashuvning hamda sivilizatsiyalar o'zaro munosabatining oqibatidir. Globallashuv jarayonining barcha yo'nalishlari o'zining rivojlanish qonuniyatlari, tendensiyalari va mexanizmiga ega.

Bu yo‘nalishlarning ichida asosiysi (determinanti) iqtisodiy globallashuv bo‘lib, u ayniqsa XX asrning oxiriga kelib jahon iqtisodiy tizimi sifatida butunlay yangi mohiyat kasb etdi.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ana shu jarayonlar to‘g‘risida shunday deb yozadi:

“Markaziy Osiyo xalqlarining integratsiyasi bor narsa, bu mavjud voqelik - hududiy birlik, kommunikatsiyalar, iqtisodiyotning asosiy va etakchi tarmoqlari mushtarakligi ob’ektiv zaruriyat deb hisoblaymiz. Bir-biriga chirmashib ketgan umumiy teran tomirlariga ega bo‘lgan xalqlarimizning madaniy, til va ma’naviy birligi haqida-ku gapirmasa ham bo‘ladi”⁵¹

Davlatimizning globallashuvga munosabati uni to‘la qabul qilishdan ham va undan to‘la himoyalanihdan ham iborat bo‘lmagani holda quyidagi jihatlariga asoslanishi lozim:

1. Mamlakatimiz va millatimiz maqsadlari va manfaatlarini hisobga olgan holda globallashuvning ijobiy natijalaridan imkon qadar kengroq va unumliroq foydalanish;

2.Globallashuv jarayonining mamlakatimiz va millatimiz ijtimoiy - iqtisodiy hayotiga zid bo‘lgan hamda madaniy - ma’naviy hayotiga tahdid soluvchi salbiy oqibatlarini aniqlash va ulardan himoyalanihdan;

3.Globallashuvning salbiy oqibatlariga qarshi alternativ yo‘llar va usullarni izlab topish;

4.Globallashuvning dinamikasi va tendensiyalarini hisobga olgan holda unga doim moslashib borish, foydalanish va zarur bo‘lganda uning salbiy jihatlariga qarshi kurashish;

5.Globallashuv jarayonidagi asosiy yo‘l millat mentaliteti, tarixiy ma’naviy qadriyatlarini zamonaviy umuminsoniy qadriyatlar va inson hamda jamiyatni

⁵¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XX1 аср бўсағасида. Хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т.: Ўзбекистон, 1997.-Б.320.

erkinlashtirishga xizmat qiluvchi ilg'or demokratik qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishga erishishdan iborat bo'lishi lozim.

Qayd etilgan jihatlar jamiyatning globallashuvga bo'lgan munosabatida progressiv va sog'lom konservatizm, milliy an'analar va qadriyatlar, ilg'or novatsiyalarga asoslangan modernizm, hamda cheklangan pragmatizmdan iborat bo'lgan yondashuvga xizmat qilishi lozim.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, sivilizatsiyalar qatoridan munosib o'rin olish, jaxon sivilizatsiyasiga o'z xissasini qo'sha olish uchun ijtimoiy jarayonning sub'ektlari, jumladan O'zbekiston Respublikasi sivilizatsiyalar dialogida o'zining munosib o'rniga ega bo'lishi va teng xuquqli ishtirokchi sifatida faoliyat ko'rsatishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Rahbariy adabiyotlar:

1. **Mirziyoev SH.M.** Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. –Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. -592 b.
2. 2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha HARAKATLAR STRATEGIYASI
3. Mirziyoev SH.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. – T.: “O‘zbekiston”, 2016. – 56 b.
4. Mirziyoev SH.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 48 b.
5. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: “O‘zbekiston”. – 2017.– 102b.
6. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
- Karimov I.A. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. –T.: “Turkiston”. 1999, 2-fevral.
7. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. - T.: “Sharq”, 1998.
8. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: “O‘zbekiston”, 1997.
9. Karimov I.A. Olloh qalbimizda, yuragimizda, Toshkent, 1999.
10. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. -T.: “Ma’naviyat”, 2009.

Maxsus adabiyotlar:

1. Bobrov I.V. i dr. Istoriya mirovyykh sivilizatsiy chast I. Uchebnoe posobie. Tyumen 2004
2. Bobrov I.V. i dr. Istoriya mirovyykh sivilizatsiy chast II. Uchebnoe posobie. Tyumen 2004
3. "Drevnie sivilizatsii". Pod obshchey redaksiyey Bangarda-Levina G. M. M., 1989.
4. YAspers K. "Smysl i naznachenie istorii". M., 1991.
5. SH.Ergashev. Qadimgi sivilizatsiyalar. - T.: O'zbekiston, 2016.
6. Safoev S.S. Markaziy Osiyodagi geosiyosat. T., 2005.
7. Bhuvan Garg. Teaching of history. India. New Delhi.: Rajat publications. 2010.
8. James B. M. Schick., Teaching History With a Computer: A Complete Guide for College Professors. USA. 2009.
9. Ispolzovanie informatsionnykh texnologiy v obuchenii istorii i Obshchestvoznaniya. – M., 2009.
10. Alaev L.B. Imperiya fenomen ili etap razvitiya? // Voprosy istorii 2000. № 4-5.
11. Baburin S.N. Territoriya gosudarstva. Pravovyye i geopoliticheskie problemy. M., 1995.
12. Berezkin YU. E. Inki. Istoricheskiy opyt imperii. M., 1991.
13. Grinin L. E. O stadiyax evolyusii gosudarstva. Problemy teorii // Istoriya i sovremennost. 2006. № 1.
14. Gosudarstvo na Drevnem Vostoke. M., 2004.
15. Kasje S.I. Imperii genesis, struktura, funktsii // Kasje S.I. Politicheskie issledovaniya. M., 1997.
16. Fenomen vostochnogo despotizma: struktura upravleniya i vlasti. M. 1993.
17. Feoklistov G.G. Imperiya kak tip strukturnogo deleniya mira Opyt klassifikatsii // Feoklistov G.G. Obshchestvennyye nauki i sovremennost. M, 2000.
18. Boboqulov Q., Eshov B. J. Qadimgi davr urbanizatsiyasining ayrim jihatlari // O'zMU xabarleri, 2013. Maxsus son.
19. Alferova M.V. Istoriya Drevnego Rima. SPb., 2002
20. Andreev YU.V. Sena svobody i garmonii. SPb., 1998.
21. Antichnaya Gretsiya. T.1-2. M., 1983.
22. Antichnaya demokratiya v svidetelstvax sovremennikov. M., 1996.
23. Berger A.K. Politicheskaya mysl drevnegrecheskoy demokratii. M., 1966.
24. Vasilev L.S. Istoriya Vostoka (lyuboe izdanie)
25. Dyakonov I. M. O ploshadi i sostave naseleniya shumerskogo goroda-gosudarstva // Vestnik drevney istorii. 1950. № 2.

26. Dyakonov I.M. Община на Древнем Востоке в работах советских исследователей // Vestnik drevney istorii. 1963. № 1.
27. Dyakonov I.M., Yakobson V.A. «Номовые государства», «территориальные сарства», «полисы и империи». Проблемы типологии // Vestnik drevney istorii. 1982. № 2.
28. Gosudarstvo Issledovanie politicheskoy mifologii M., 1999.
29. Gosudarstvo i sotsialnye struktury na Drevnem Vostoke. M., 1989.
30. Zaysev A.I. Kulturnyy perevorot v Gretsii VIII–V vv. do n.e. L.,1995.
31. Istoriya Vostoka. T. 1. Vostok v drevnosti. M., 1997.
32. Koshelenko G.A. Grecheskiy polis na ellinisticheskoy Vostoke. M., 1979.
33. Koshelenko G.A. O nekotorykh problemakh stanovleniya i razvitiya gosudarstvennosti v drevney Gretsii // Ot doklassovykh obshchestv k ranneklassovym. M., 1987.
34. Kuchma V.V. Gosudarstvo i pravo v stranax Drevnego Vostoka: Uchebnoye posobie. Volgograd, 1998.
35. Marinovich L.P. Grecheskoe naemnichestvo IV v. do n.e. i krizis polisa. M., 1975.
36. Palseva L.A. Iz istorii arxaicheskoy Gretsii: Megary i megarskie kolonii. SPb., 1999.
37. Platon. Gosudarstvo (lyuboe izdanie)

Elektron ta'lim resurslari

1. www.gov.uz
2. www.press-service.uz
3. www.Ziyonet.uz
4. www.edu.uz
5. Infocom.uz elektron jurnali: www.infocom.uz